

## **HAJ va UMRA IBODATLARI**

(Haj va umra qiluvchilar uchun duolar kitobi)

Tarjimon  
**Abbos Tursunov**

Toshkent  
2003 yil

**«Endi, marosimlaringizni ado qilib bo'lgach, Allohni ajdodlaringizni eslagandek, balki undan-da qattiqroq eslang! Zotan odamlar orasida shunday kimsalar borki, «Ey Parvardigor, bizga mana shu dunyoda bergin», deydi. Holbuki, uning uchun Oxiratda hech qanday nasiba yo'q. Va ularning orasida shunday zotlar ham borki, «Parvardigoro, bizga bu dunyoda ham yaxshilik ato qilgin, oxiratda ham yaxshilik ato etgin va bizni do'zax azobidan asragin», deydilar. Ana o'sha zotlar uchun qilgan ibodatlari (haj, duolari) sharofatidan nasiba bor. Alloh tez hisob-kitob qilguvchi zotdir. Sanoqli kunlarda Allohni zikr qilingiz!»**

(Baqara surasi, 200–203-oyatlar)

### **Taqdim**

#### **Bismillahir rohmanir rohiym.**

Alloh taolo Qur'oni karimda shunday marhamat etadi: **“Parvardigoringiz: “Menga duo-iltijo qilinglar, Men sizlarga (qilgan duolaringizni) mustajob qilurman”, dedi”**. (G'ofir surasi, 60-oyat).

Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamdan vorid bo'lgan hadisi sharifda: **“Albatta Alloh taolo saxiy va hayo egasidir. U O'zi uchun qo'llarini ko'tarib, duo qilib to'rgan kishini umidsiz, qup-quruq qaytarmoqlikdan hayo qiladi”**, deyilgan.

Duo – ibodatdir. U banda bilan Holiqi Zuljalolning orasini bog'laydi. Inson Allohdan rahmat, mag'firat, ne'mat, so'rab, Unga tavba-tazarru qilib, duoga qo'l ochadi. Duo orqali Parvardigoriga iltijo qilib, Undan madad so'raydi. Bu bilan Alloh taolo huzurida bandalikni, qullikni bo'yniga oladi.

Duo hamma joyda, barcha ibodatlarda, hamma vaqtda qilinaveradi. Ayniqsa haj va umra ibodatlarida duolarning ko'proq ijobat bo'lishi haqida ulamo va fuzalolarning fikrlari bor. Chunki ana shu ibodatlar asnosida musulmonlar dunyo hayotidan ma'lum vaqtga uzilib, Allohga yanada yaqinlashadilar, Parvardigorlari huzurida turib, tavba-tazarru qilish, Uni ko'proq zikr etish, hojatlari va ne'matlarini so'rash imkoniyati ko'payadi.

Haj va umra ibodatini ado etish tartibi, uning arkonlari va hukmlari haqida ko'plab kitoblar tasnif etilib, har yili hojilarimiz ulardan bahramand bo'lishmoqda. Endi haj va umra qilish chog'ida, arkonlarni bajarishda o'qiladigan duolar ham kitob holida to'planib, hukmingizga havola etilyapti. Agar u ibodatlaringizni komil qilishda, Allohga yolborib qilayotgan duolaringizni ko'paytirishda asqotib qolsa va yordam berolsa, musannif

niyatiga yetgan bo'lur edi.

Tavfiq – Allohdandir!

### **Makkaga kirayotganda o'qiladigan duo**

Agar haj qiluvchining ko'zi Makkadagi uylarga tushsa shunday deb aytsin:

*«Bismillahir rohmanir rohiym. Allohummaj'alliy biha qororon, varzuqniy fiyha rizqon halalan»*

Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan boshlayman. Allohim uni (Makkani) men uchun qarorgoh qilgin. U yerda meni halol rizq ila rizqlantirgin.

Duo qilayotganda qo'llarini ko'tarmaydi.

Bu duo Makkai Mukarramaga kirayotganda o'qiladi:

### **Makkaga kirayotganda o'qiladigan duo**

Agar haj qiluvchining ko'zi Makkadagi uylarga tushsa shunday deb aytsin:

*«Bismillahir rohmanir rohiym. Allohummaj'alliy biha qororon, varzuqniy fiyha rizqon halalan»*

Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan boshlayman. Allohim uni (Makkani) men uchun qarorgoh qilgin. U yerda meni halol rizq ila rizqlantirgin.

Duo qilayotganda qo'llarini ko'tarmaydi.

### **Bu duo Makkai Mukarramaga kirayotganda o'qiladi:**

*«Allohumma inna hazal haroma haromuka, valbalada baladuka, val`amna amnuka, val`abda abduka, ji`tuka min biladin ba'iydatin bizunubin kasirotin, vaa'malin sayyiatin, as'aluka mas'alatal muztorriyna ilayka, almushfiqiyna min azabika, an tastaqbilani bimahzi afvika vaan tudxilaniy fasiyha jannatika, jannatin na'iymi, Allohumma inna haza haromuka va haromu rosulika, faharrim lahmiy vadamiy va `azomi `alannari, Allohumma aaminniy min `azabika yavma tab'asu `ibadaka as'aluka biannaka antallohu la ilaha illa antarrohmanurrohiym, an tusolliy va tusallima `ala sayyidina muhammadin va'ala aalihi tasliyman kasiron abadan».*

Allohim, bu haram Sening haramingdir, bu yurt Sening yurtingdir, bu omonliging Sening omonligingdir va bu banda Sening bandangdir. Huzuringga uzoq yurtdan ko'p gunohlar va yomon amallar bilan keldim. Allohim, Sening azobingdan qo'rqib, Senga muhtoj bo'luvchilarning, azobingdan qo'rquvchilarning so'rovini, meni to'liq kechirib kutib olishingni va jannatlarning kengrog'i bo'lmish jannatun-na'iymga kiritishingni so'rayman. Allohim, bu Sening haramingdir va rasulingning haramidir. Mening go'shtimni, qonimni

va suyagimni do'zaxga harom qilgin. Allohim, bandalaringni qayta tiriltiradigan kuningdagi azobingdan meni omon saqla. Zero Sen Allohdirsan, hech iloh yo'qdir, magar Rahmon, Rahim bo'lmish zot Sen borsan. Sendan sayyidimiz Muhammad (s.a.v.) va u zotning ahli baytlariga abadiy, ko'p salotu salomlar yuborishingni so'rayman".

### **Bu duo Masjidul haromning Salom eshigidan kirayotganda o'qiladi:**

*«Allohumma antas salamu va minkas salamu fahayyina robbana bissalam. Va adxilnal jannata daros salami tabarokta va ta'alayta ya zal jalali val ikrom. Allohummaftah liy abvaba rohmatika va mag'firoatika va adxilniy fiyha, bismillahi valhamdu lillahi vas solatu vas salamu 'ala rosulillahi sollallohu alayhi vasallama».*

Allohim, Sen salom sifatli zotsan, salomatlik Sendan. Bizni salomatlik ila tiriltir, salomatlik diyori bo'lmish jannatga bizlarni kirgizgin. Ey buyuklik va ulug'lik egasi, Sen barakotli va oliy bo'lding. Allohim, menga rahmat va mag'firat eshiklarini ochgin va meni unga kiritgin. Alloh nomi ila boshlayman. Allohga hamd bo'lsin. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga salotu-salomlar bo'lsin!

### **Baytullohga ko'z tushganda o'qiladigan duo**

Agar Bayti sharifga ko'zi tushsa, uch marta tahlil («La ilaha illalloh») aytadi va uch marta takbir («Allohu akbar») aytadi. So'ng ushbu duoni o'qiydi:

*«La ilaha illallohu vahdahu la shariyka lahu, lahu mulku valahul hamdu vahuva 'ala kulli shay'in qodiy. A'uuzu birobbil bayti minal kufri val faqri va min 'azabil qabri va ziyqis sodri. Vasollallohu 'ala sayyidina muhammadin va 'ala alihi vasohbihi vasallam. Allohumma zid hazal bayta tashriyfan va takriyman va ta'ziyman va mahabatan va zid ya robbi man sharrofahu va karromahu va 'azzomahu mimman hajjahu av i'tamarohu tashriyfan va takriyman va ta'ziyman va mahabatan va rif'atan va birron»*

Hech iloh yo'qdir, magar yolg'iz Alloh bordir. Uning hech bir sherigi yo'qdir. Jamiki mulk va hamd unikidir. Va u har narsaga qodir Zotdir. Bayti Robbisi nomi ila kufrdan, faqrdan, qabr azobidan va qalb torligidan panohlanaman. Sayyidimiz Muhammad (s.a.v.) va u zotning ahli baytlariga va sahobalariga Allohning salotu salomi bo'lsin. Allohim, baytingni musharraflikda, mukarramlikda, muazzamlikda, mahobatda, darajada va yaxshilikda ziyoda qilgin. Ey Rabbim, haj va umra qiluvchilardan kimki baytingni musharraf, mukarram va muazzam qilsa Sen ham musharraflikda, mukarramlikda, muazzamlikda, mahobatda, darajada va yaxshilikda ziyoda qilgin.

### **Tavof**

Haj, umra va yoki vado' (vidolashuv) tavoflari uchun Ka'bani yetti marotaba aylanib, tavof qilinadi. So'ng qora toshni o'piladi. Va qo'llarni ko'tarib shunday deyiladi:

*«Bismillahir rohmanir rohiym. Allohu akbar, valillahil hamd».*

Mehribon va rahmli Alloh nomi ila boshlayman. Alloh ulug`dir va hamd Alloh uchundir.

### **Birinchi shavt duosi:**

*«Subhonallohi valhamdu lillahi vala ilaha illallohu vallohu akbar vala havla vala quvvata illa billahil `aliyyil aziym. Vassolatu vassalamu ala rasulillahi sollallohu alayhi vasallam. Allohumma iymanan bika va tasdiyqon bikitabika vavafaan biahdika vattiba`an lisunnati nabiiyyika va habiybika Muhammadin sollallohu alayhi vasallam. Allohumma inniy as`alukal afva val-`ofiyata val-mu`ofatad daimata fiddiyni vad-dunya val-axirota val-favza biljannati vannajata minannar».*

Alloh barcha aybi-nuqsonlardan pok zotdir. Va hamd-maqtov Alloh uchundir. Hech iloh yo`qdir, magar Alloh bordir. Alloh ulug`dir. Aziym, Aliym bo`lmish Allohdan boshqa hech kuch-qudrat yo`qdir. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga salotu salomlar bo`lsin. Allohim Senga iymon keltirgan holatda, kitobingni tasdiqlagan holatda, sening ahdingga vafo qilib va Payg`ambaring, habibing Muhammad sollallohu alayhi vasallamning sunnatlariga ergashgan holatda (haj qilishga keldik). Allohim, albatta men afvni, ofiyatni, din, dunyo va oxiratda doimiy salomatlikni, jannatni qozonib, do`zaxdan qutulishni Sendan so`rayman.

### **Har bir aylanishda shu duo o`qiladi:**

*«Robbana atina fiddunyo hasanatan vafil axiroti hasanata vaqina azaban nari va adxilnal jannata ma`al abrori ya `aziyzu ya g`offaru ya robbal alamiyn».*

Parvardigoro, bizlarga dunyoda ham, oxiratda ham yaxshiliklarni ato etgin va bizni do`zax azobidan asragin. Ey Aziz, ey mag`firat qiluvchi Zot, ey olamlarning Rabbisi, bizlarni yaxshilar bilan birga jannatga kiritgin!

### **Ikkinchi shavt duosi:**

*«Allohumma inna hazal bayta baytuka, valharaoma haromuka, val `amna amnuka, val`abdu `abduka, va ana `abduka vabnu `abdika, vahaza maqomul `aizi bika minannar, faharrim luhumana vabasharotana `alannar, Allohumma habbib ilaynal iymana va zayyinhu fiy quluubina va karrih ilaynal kufro valfusuuqo val`isyana vaj`alna minar roshidiyn. Allohumma qiniy `azabaka yavma tab`asu `ibadaka. Allohumma adxilniy jannata big`oyri hisab».*

Allohim, albatta bu bayt (uy) Sening baytingdir. Va haram Sening haramingdir. Va omonlik Sening omonligingdir. Bu banda Sening bandangdir. Men Sening bandangman va bandangning o`g`liman. Bu o`rin Sening noming bilan do`zaxdan panohlanuvchining o`rnidir. Bas, bizlarning go`shtlarimizni va yuzlarimizni do`zaxga harom qilgin. Allohim, bizlarga iymonni sevimli qilgin va qalblarimizda uni ziynatlagin. Bizlarga kuforni, fisqni, isyonni yomon ko`rsatgin va bizlarni to`g`ri yo`lda yuruvchilardan qilgin. Allohim,

bandalaringni qayta tiriltiradigan kuningdagi azobingdan meni saqlagin. Allohim, meni jannating bilan hisobsiz rizqlantirgin!

### **Uchinchi shavt duosi:**

*«Allohumma inniy a'uzu bika minashshakki vashshirki vashshiqoqi vannifaqi va suu`il axlaqi va suu`il manzori valmunqolabi fil mali valahli valvaladi. Allohumma inniy as`aluka rizoka va jannataka vaa'uzu min saxatika vannari. Allohumma inniy a'uzu bika min fitnatil qobri vaa'uzu bika min fitnatil mahya valmamati»*

Allohim, men Sen bilan shakdan, shirkdan, badbaxtlikdan, nifoqdan, yomon axloqdan va ahl, bola hamda mol masalasida yomon manzara va yomon o'zgarishdan panohlanaman. Allohim, Sendan roziligingni va jannatni so'rayman. Va Sen bilan g'azabingdan va do'zaxdan panohlanaman. Va Sen bilan tiriklik va o'lim fitnasidan panohlanaman.

### **To'rtinchi shavt duosi:**

*«Allohumma ij'alhu hajjan mabruuron va sa'yan mashkuuron va zanban mag'fuuron va `amalan solihan maqbuulan va tijarotan lan tabuur ya `alima ma fissuduur axrijniy ya Alluhu minazzulumati ilannuur. Allohumma inniy as'aluka muujibati rohmatika va `azaima mag'firoatika vassalamata min kulli ismin valg'oniyamata min kulli birrin valfavza biljannati vannajata minan nar. Robbi qanni'niy va barik liy fiyma a'taytaniy vaxlif `ala kulli g'oibatin liy minka bixoyrin».*

Allohim, bu qilayotgan hajimni mabrur hajlardan, sa'yimni mashkur sa'ylerden va gunohlarimni mag'fur, amallarimni solih maqbul amallardan va hech ziyon ko'rmaydigan tijorat qilgin. Ey qalblardagi narsani biluvchi Zot – ey Alloh, meni zulmatdan nurga chiqargin. Rahmatingga mustahiq bo'ladigan narsani, mag'firatingni vojib qiladigan narsani, har bir gunohdan salomat bo'lishni va har bir yaxshilikda g'animatni, jannat bilan mukofotlanishni, do'zaxdan najot topishni so'rayman. Rabbiy, bergan rizqingga qanoatli qilgin. Bergan narsalaringni esa barakatli etgin. Ortimda qolgan barcha g'oiblarni xayrli holatda qoldirgin.

### **Beshinchi shavt duosi:**

*«Allohumma azillaniy taxta zilli `arshika yavma la zilla illa zilluka vala boqiya illa vajhuka vasqiniy min havzi nabiiyika sayyidina Muhammadin sollallohu alayhi vasallam sharbatan haniatan mariatan la nazmau ba'daha abadan, Allohumma inni as`aluka min xoyri ma sa`alaka minhu nabiiyuka sayyiduna muhammadun sollallohu alayhi vasallama, va a'uzu bika min sharri masta'azaka minhu nabiiyuka sayyiduna Muhammadun sollallohu alayhi vasallama. Allohumma inniy as`alukal jannata va na'iyamaha vama yuqorribuniy ilayha min qovlin av fi'lin av `amalin va a'uzu bika minannari vama yuqorribuniy ilayha min qovlin av fi'lin av `amalin».*

Allohim, soyangdan boshqa soya bo'lmaydigan kunda Arshing soyasi ostida meni soyalantirgin. Sening vajhingdan o'zga hech narsa boqiy emas. Nabiying, Sayyidimiz

Muhammad alayhissalom havzlaridan pok va muborak sharbat ila bizlarni sug'orginki, undan so'ng biz abadiy chanqamaymiz. Allohim, Nabiying, Sayyidimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam Sendan so'ragan narsalarning yaxshirog'ini so'rayman. Va Nabiying, Sayyidimiz Muhammad (sollallohu alayhi vasallam) panoh so'ragan narsalarning yomonrog'idan Sen bilan panohlanaman. Allohim, men Sendan jannat va uning ne'matlarini va meni unga yaqinlashtiruvchi so'z, fe'l, amal kabi narsalarni so'rayman. Va Sen bilan do'zaxdan va meni unga yaqinlashtiruvchi so'z, fe'l yoki amal kabi narsalardan panohlanaman.

### **Oltinchi shavt duosi:**

*«Allohumma inna laka alayya huquqon kasiyrotan fiyma bayniy vabaynika, vahuquqon kasiyrotan fiyma bayni vabayna xolqika, Allohumma ma kana laka minha fag'firhu liy vama kana lixolqika fatahammalhu 'anniy va ag'niniy bihalalika 'an haromika vabito'atika 'an ma'siyatika, vabifazlika 'an man sivaka, ya vasi'al mag'firoh. Allohumma inna baytaka 'aziymun, vavajhaka kariymun, vaanta ya Allohu haliymun kariymun 'aziymun tuhibbul 'afva fa'fu 'anniy».*

Allohim, zimmamda Sen bilan mening o'rtamizda bo'lgan ko'p haqlar bordir. Va yana mening zimmamda men va mahluqlaring o'rtasida bo'lgan ko'p haqlar bordir. Allohim, yuqoridagi haqlardan Seniki bo'lganlarini men uchun kechib yubor. Ulardan maxluqlaringga tegishli bo'lganlarini mendan ko'targin. Va meni haloling bilan haromingdan, toating bilan ma'siyatingdan va fazling bilan o'zingdan o'zgalardan behojat qilgin. Ey mag'firati keng bo'lgan Zot. Allohim, albatta Sening bayting aziymdir. Va vajhing karimdir. Va sen Ey Alloh, Halim, Karim, Aziymdirsan. Afvni yaxshi ko'rasan, bas meni afv et.

### **Yettinchi shavt duosi:**

*«Allohumma inni as'aluka iymanan kamilan, vayaqiyndan sodiqon varizqon vasi'an va qolban xoshi'an, valisanan zakiron, vahalalan toyyiban, vatavbatan nasuhan, vatavbatan qoblal mavti varohatan 'indal mavti vamag'firotan varohmatan ba'dal mavti, val'afva 'indal hisabi, valfavza biljannati vannajata minannari birohmatika ya 'azizu ya g'offaru robbi zidniy 'ilman va `alhiqniy bissolihiy».*

Allohim, men Sendan komil iymon, sodiq ishonch, keng rizq, qo'rquvchi qalb, zikr qiluvchi til, yaxshi halol narsani, haqiqiy tavbani, o'limdan oldingi tavbani, o'lim paytidagi rohatni, o'limdan keyingi mag'firat va rahmatni, hisob vaqtidagi afvni, jannat bilan mukofotlanishni, do'zaxdan najot topishni ey Aziz, ey G'affor, Sening rahmating bilan so'rayman. Rabbii, ilmimni ziyoda etgin va solihlar bilan birga qilgin.

### **Multazam duosi**

*«Allohumma ya robbal baytil 'atiyqi i'tiq riqobana variqoba aaba`ina va ummahatina vaixvanina va `avladina minan nari, ya zaljuudi valkaromi valfazli valmanni val'atoi val`ihsani, Allohumma ahsin 'aqibatana fil umuri kulliha va `ajirna min xizyiddunya*

*va'azabil `axiroh. Allohumma inniy `abduka vabnu `abdika vaqifun tahta babika, multazimun bi `a'tobika mutazallilun bayna yadayka, arjuu rohmataka va axshaa `azabaka, ya qodiymal ihsani Allohumma inniy as `aluka an tarfa'a zikriy vatazo'a vizriy, vatusliha amriy tutohhiro qolbiy vatunavviro liy fiy qobriy, vatag'firo li zanbiy, va as `alukad darojatil `ulaa minal jannati aamiyn».*

Allohim, ey ko'hna Baytning Rabbisi. Bo'yinlarimizni va otalarimizning, onalarimizning, birodarlarimizning, bolalarimizning bo'yinlarini do'zaxdan ozod qilgin, ey sahiylik, karam, fazl, minnat, ato, ehson egasi – Allohim, har bir ishda oqibatlarimizni chiroyli qilgin. Va bizlarni dunyodagi sharmandalikdan va oxiratdagi azobdan saqlagin. Allohim, men sening bandangman, bandangning o'g'liman. Eshiging ostida, ostonangga osilib, oldingda xor bo'lib turibman. Rahmatingdan umid qilaman, azobingdan qo'rqaman, Ey ehson beruvchi – Allohim, zikrimni ko'tarishingni, gunohimni pastga tashlashingni va ishimni isloh qilishingni, qalbimni poklashingni va qabrimni nurlantirishingni, gunohimni kechishingni so'rayman. Va jannatda baland darajalar berishingni so'rayman. Omin.

### **Zamzam suvi ichilayotganda o'qiladigan duo**

*«Allohumma inniy as `aluka `ilman nafi'an varizqon vasi'an vashifa `an min kulli da `in vasaqiymun birohmatika ya arhamar rohimiyun».*

Ey rahmlilarning rahmlirog'i – Allohim, rahmating bilan men Sendan manfaat beruvchi ilm, keng rizq va har bir dard va xastaliklarga shifo so'rayman.

### **Ibrohim (a.s.) maqomlarida o'qiladigan duo**

*«Allohumma innaka ta'lamu sirriy va'alaniyyatiy faqbil ma'zirotiy, vata'lamu hajatiy fa `a'tiniy su `liy, vata'lamu ma fiy nafsiy fag'fir liy zunubiy, Allohumma inni as `aluka iymanan yubashiru qolbiy va yaqinan sodiqon hatta a'lamu annahu la yusibuniy illa ma katabta liy rizon minka bima qosamta liy, anta valiyyiy fiddunya val `axiroti, tavaffaniy musliman va `alhiqniy bissolihiyn, Allohumma la tada' lana fiy maqomina haza zanban illa g'ofartahu, vala hamman illa farrojtahu, vala hajatan illa qozoytaha va yassartaha, fayassir umurona, vashroh sudurona, vanavvir qulubana, vaxtim bissolihati a'malana, Allohumma tavaffana muslimiyna va `ahyina muslimiyna, va `alhiqna bissolihiyna, g'oyro xozayaa vala maftuniyna».*

Allohim, albatta Sen sirrimni ham, sirtimni ham bilasan, bas, uzru o'tinchimni qabul qil. Hojatimni bilasan, bas, so'ragan narsamni bergin. Nafsimdagi narsalarni bilasan, bas, gunohimni mag'firat qil. Allohim, Sendan qalbimni boshqaradigan iymon, va sodiq ishonchni so'rayman, hattoki menga faqat taqdir qilgan narsanggina yetishini, men uchun taqsim qilgan narsangga rozi bo'lgan holatimda bilaman. Sen u dunyo-yu bu dunyo Egamsan. Meni musulmon holatda vafot ettirgin va solihlar bilan birga qilgin. Allohim, bu maqomimizda mag'firat qilinmagan gunohimizni, yechilmagan g'amimizni, ravo bo'lmagan va oson qilinmagan hojatimizni qoldirmagin. Bas, ishlarimizni oson qilgin, dillarimizni keng qilgin, qalblarimizni nurlantirgin, amallarimizni solihi bilan tugatgin. Allohim, musulmon holatda vafot ettirib, musulmon holatda tiriltirgin, solihlar bilan birga qilgin, fitnalangan, sharmanda bo'lganlar bilan birga qilmagin!

## **Ismoil (alayhissalom) toshlari yonida o`qiladigan duo**

*«Allohumma anta robbiy la ilaha illa anta xolaqtaniy va ana 'abduka, va ana 'ala 'ahdika va va'dika mastato'tu a'uuzu bika min sharri ma sona'tu, abuu`u laka bini'matika 'alayya, va`abuu`u bizanbiy, fag'firliy fainnahu la yag'firuzzunuuba illa anta. Allohumma inniy as'aluka min xoyri ma sa'alaka bihi 'ibadukassolihuun, va`a'uuzu bika min sharri masta'azaka minhu 'ibadukassolihuun. Allohumma bi`asmaikal husnaa, vasifatikal 'ulyaa, tohhir qulubana min kulli vasfin yuba'iduna min mushahadatika va mahabbatika, vaamitna 'alassunnati valjama'ati vashshavqi ilaa liqoika ya zal jalali val`ikromi. Allohumma navvir bil'ilmu qolbiy, vasta'mil bito'atika badaniy, vaxollis minal fitani sirriy, vashg'il bil`i'tibari fikriy, vaqiniy sharro vasavisish shaytoni va`ajirniy minhu ya rohmanu hatta la yakunu lahu 'alayya sul-tonun, robbana innana aamanna fag'firlana zunubana, vaqina 'azabannari»*

Allohim, Sen Parvardigorimsan, Sendan boshqa iloh yo`q. Meni xalq qilding va men Sening qulingman. Men Senga bergan va'damda va ahdimda qodir bo'lganimcha turibman. Qilgan narsalarimning yomonidan noming bilan panoh tilayman. Menga ato qilgan ne'matlaringga iqror bo'ldim. Va yana gunohlarimga ham iqror bo'ldim. Gunohlarimni kechir, unki Sendan boshqasi gunohlarni kechira olmaydi.

Allohim, men solih bandalaring Sendan so'ragan narsaning yaxshisini so'rayman. Va solih bandalaring Sendan panoh so'ragan narsaning yomonligidan panoh so'rayman.

Allohim, chiroyli ismlaring, oliy sifatlarining bilan so'raymiz. Qalblarimizni mushohadangdan, muhabbatingdan uzoqlashtiradigan har bir vasfdan poklagin. Bizlarni ahli sunna val jamoada, Senga yo'liqishga shavqli holatda vafot etdirgin, ey jalol va ikrom egasi bo'lgin zot! Allohim, qalbimni ilm bilan nurlantirgin. Badanimni toating bilan mashg'ul qilgin. Vujudimni fitnalardan xalos etgin. Fikrimni ibrat bilan mashg'ul qilgin. Shayton vasvasalaridan meni asragin va undan menga najot bergin, ey Rahmon. Hattoki uning uchun mening ustimda hech qanday sul-tonlik bo'lmasin. Ey Rabbimiz, imon keltirdik, gunohlarimizni mag'firat qilgin va do'zax azobidan bizlarni asragin.

## **Safo duosi**

*«Abda`u bima bada`allohu varosuuluhu, innassofa val marvata min sha'a`irillahi faman hajjal bayta avi'tamaro fala junaha alayhi ay yattovvafa bihima vaman tatovva'a xoyron fa`innalloha shakirun 'aliymun».*

Alloh va Uning Rasuli boshlagan narsa bilan boshlayman: (Albatta Safo va Marva Alloh (buyurgan) marosimlardandir. Bas, kim haj yoki umra qilsa, u ikki tog` orasida sa'y qilishining gunohi yo'qdir. Va kim o'z ixtiyori-la yaxshilikni niyat qilsa, bas, albatta Alloh shukr qilguvchi (taqdirlovchi) va bilguvchidir)».

## **Sa'y**

Haj (yoki agar niyat qilingan bo'lsa umra) sa'yi (yurishi) Alloh taolo uchun yetti bora qilinadi. So'ng Safo tepaligiga ko'tariladi. Va aytadi:



«Allohu akbaru, Allohu akbaru, Allohu akbaru, valillahil hamd».

Alloh ulug`dir. Alloh ulug`dir. Alloh ulug`dir. Va hamd Alloh uchundir.

### Sa'ying birinchi shavti duosi

«Allohu akbaru, Allohu akbaru, Allohu akbaru, Allohu akbaru kabiyrin valhamdu lillahi kasiyrin vasubhanallohil `aziymi vabihamdihil kariymi bukrotan va `asiylaa, vaminallayli fasjud lahu vasabbihhu laylan toviylan, la ilaha illallohu vahdahu anjaza va`dahu vanasora `abdahu, vahazamal ahzaba vahdahu, la shay`a qoblahu va la ba`dahu yuhyiy va yumiytu vahuva hayyun da`iman la yamuutu vala yafuutu abadan, biyadihil xoyru va ilayhil masiyrin vahuva `alaa kulli shay`in qodiyrun (robbig`fir varham vatajavaz `amma ta`lam, innaka ta`lamu mala na`lamu innaka antal a`azzul akromu) robbana najjina minannari salimiyna g`onimiyna farihiyna mustabshiriyn ma`a `ibadikas solihiyina ma`allaziyna an`amallohu `alayhim minan nabiyyiyna vassiddiyqina vashshuhadai vassolihiyina vahasuna ula`ika rofiqon, zalikal fazlu minallohi vakafaa billahi `aliyman, la ilaha illallohu haqqon haqqon, la ilaha illallohu ta`abbudan variqqon, la ilaha illallohu va la na`budu illa iyyahu muxlisiyna lahuddiyna valav karihal kafiruuna».

Alloh ulug`dir, Alloh ulug`dir. Alloh ulug`larning buyugidir. Alloh uchun ko`p hamd bo`lsin. Ulug` Alloh pokdir. Ertayu kech buyuk hamd bilan maqtayman. **«Yana kechanning bir qismida ham U zotga sajda qiling va tunda uzoq (bedor bo`lib) U zotga tasbeh ayting».**

Hech iloh yo`q, magar yolg`iz Alloh bor. Va`dasini amalga oshirdi, bandasiga yordam berdi, guruhlarini yolg`iz o`zi yengdi. Undan oldin ham, keyin ham hech kim yo`qdir. U tiriltiradi, o`ldiradi. U doim tirikdir, o`lmaydi va hech qachon foni bo`lmaydi. Yaxshilik Uning qo`lidadir. Qaytish Ungadir va U har narsaga qodirdir.

Rabbim, mag`firat qil va rahm et, afv qil, mukarram qil va bilgan narsalaringni kechib yubor. Albatta sen biz bilmagan narsalarni bilasan. Albatta sen aziz akram Allohdirsan. Rabbimiz, bizlarni salomat, g`animatli, bashorat berilgan, xursand holatda solih bandalaring bilan, Alloh in`omlariga sazovor bo`lgan zotlar – Payg`ambarlar, haq-rost iymon egalari, shahidlar va faqat yaxshi amallar bilan o`tgan kishilar bilan birga do`zaxdan saqlab najot bergin. Ular esa eng yaxshi hamrohlardir. Bu Alloh tomonidan bo`lgan fazlu marhamatdir. Allohning o`zi yetarli bilguvchidir.

Hech iloh yo`q, magar Haq bo`lgan Alloh bordir. Bandachilik va qulchilik uchun hech iloh yo`qdir, magar Alloh bor. Dinda U uchun xolis holatda, faqatgina Unga ibodat qilamiz. Garchi kofirlar yomon qo`rishsa ham.

### Marvaga yaqinlashganda o`qing:

«Innassofa val marvata min sha`a`irillahi faman hajjal bayta avi`tamaro fala junaha alayhi ay yattovvafa bihima vaman tatovva`a xoyron fa`innalloha shakirun `aliymun».

**«Albatta Safo va Marva Alloh (buyurgan) marosimlardandir. Bas, kim haj yoki umra qilsa, u ikki tog` orasida sa'y qilishining gunohi yo'qdir. Va kim o'z ixtiyori-la yaxshilikni niyat qilsa, bas, albatta Alloh shukr qilguvchi (taqdirlovchi) va bilguvchidir».**

## **Ikkinchi shavt duosi**

*«Allohu akbaru, Allohu akbaru, Allohu akbaru, valillahil hamdu. La ilaha illallohul vahidul fardus somadu lam yattaxiz sohibatan vala valadan, valam yakun lahu shariykun fil mulki valam yakun lahu valiyyum minazzulli vakabbirhu takbiyron. Allohumma innaka qulta fiy kitabikal munzali ud'uuniy astajib lakum da'vaana robbana fag'firlana kama amartana innaka la tuxliful miy'aad. Robbana innana sami'na munadiyay yunadiy lil iymani an aminuu birobbikum fa`aamanna robbana fag'fir lana zunubana vakaffir `anna sayyi`aatina vatavaffana ma'al abrori, robbana va`aatina ma va'attana `alaa rusulika vala tuxzina yavmal qiyamati innaka la tuxliful miy'aadi, robbana `alayka tavakkalna va ilayka anabna va ilayka masiyru, robbanag'firlana vali`ixvaninallaziyna sabaquuna bil`iymani vala taj'al fiy quluubina g'illal lillaziyna amanuu robbana innaka ro`ufur rohiym.(Robbig'fir varham vatajavaz `amma ta'lam, innaka ta'lamu mala na'lamu innaka antal `a'azzul `akromu) Innassofa val marvata min sha'a`irillahi faman hajjal bayta avi'tamaro fala junaha alayhi ay yattovvafa bihima vaman tatovva'a xoyron fa`innalloha shakirun `aliymun».*

Alloh ulug`dir. Alloh ulug`dir. Alloh ulug`dir va hamd Alloh uchundir. Xech iloh yo'qdir, magar bolasiz va sheriksiz bo'lgan yakka-yolg'iz Alloh bordir. Va bola-chaqa qilmagan, podshohlik-ilohlikda sherigi yo'q, xor-zorlikdan (qutqaruvchi), do'sti-yordamchisi bo'lmagan (ya'ni, hech kimga xor-muhtoj bo'lmaydigan) zot – Alloh bordir va U Zotni mudom ulug`lang.

Allohim, Sen nozil qilgan Kitobingda aytgansan: **«Menga duo qilgan paytlaringda duolaringni ijobat qilaman»**. Rabbimiz, senga duoyimiz shuki, bizlarni mag'firat qil, xuddi bizga buyurganingdek, albatta Sen va'daga xilof qilmaysan.

**«Parvardigoro, albatta biz: «Parvardigoringizga iymon keltiringiz!» – deb iymonga chorlagan jarchi (Muhammad alayhissalom nidolarini) eshitdigu iymon keltirdik. Parvardigoro, bizning gunohlarimizni mag'firat qil, qilgan yomonliklarimizni (nomai a'molimizdan) o'chirgil va bizlarni yaxshilar bilan birga o'ldir. Parvardigoro, bizlarga payg'ambarlaring orqali va'da qilgan narsalaringni (jannat, mag'firat, visolingdan bahramand etish kabi ne'matlaringni) ato et va bizlarni qiyomat kunida rasvo qilmagil. Albatta, Sen va'dangga xilof qilmagaysan». «Parvardigoro, yolg'iz O'zingga tavakkul qildik va O'zingga inobat-tavba qildik. Yolg'iz Sengagina qaytishimiz bordir». «Parvardigoro, O'zing bizlarni va bizlardan ilgari iymon bilan o'tgan zotlarni mag'firat qilgin va qalblarimizda iymon keltirgan zotlar uchun biron g'illi-g'ash qilmagin. Parvardigoro, albatta Sen mehribon va rahmlidirsan».**

Ey Rabbim, mag'firat qil, rahm ayla va mendagi bilgan narsalaringni kechib yubor. Albatta Sen biz bilmaydigan narsani bilasan. Albatta, Sen aziz va karamli zotsan.

**«Albatta Safo va Marva Alloh (buyurgan) marosimlardandir. Bas, kim haj yoki umra qilsa, u ikki tog` orasida sa'y qilishining gunohi yo'qdir. Va kim o'z ixtiyori-la yaxshilikni niyat qilsa, bas, albatta Alloh shukr qilguvchi (taqdirlovchi) va bilguvchidir».**

### **Uchinchi shavt duosi**

*«Allohu akbaru, Allohu akbaru, Allohu akbaru, valillahil hamdu. Robbana atmim lana nuurona vag'fir lana innaka `alaa kulli shay`in qodiyrun, Allohmma inniy as`aluka xoyro kullahu `ajilahu va `ajilahu va `astag'firuka lizanbiy, va `as`aluka rohmataka ya arhamarrohimiy. (Robbig'fir varham vatajavaz `amma ta'lam, innaka ta'lamu mala na'lamu innaka antal `a'azzul `akromu) Robbi zidniy `ilman vala tuzig' qolbiy ba'da iz hadaytaniy, vahab liy milladunka rohmata innaka antal vahhab. Allohmma `aafiniy fiy sam'iy va basoriy la ilaha illa anta, Allohmma inniy a'uuzu bika min `azabil qabri, la ilaha illa anta subhanaka inniy kuntu minazzolimiyn. Allohmma inniy a'uuzu bika minal kufri valfaqri, Allohmma inniy a'uuzu birizoka min saxotika vabimu'afatika min `uquubatika va a'uuzu bika minka la uhsiy sana`an `alayka kama asnayta `ala nafsika falakal hamdu hatta tarzo. (Innassofa val marvata min sha'a`irillahi faman hajjal bayta avi'tamaro fala junaha alayhi ay yattovvafa bihima vaman tatovva'a xoyron fa`innalloha shakirun `aliymun)».*

Alloh ulug'dir, Alloh ulug'dir, Alloh ulug'dir. Hamd Alloh uchundir. Parvardigoro, O'zing bizlarga nurimizni komil qilib bergin va bizlarni mag'firat qilgin. Albatta Sen barcha narsaga qodirdirsan. Allohim, men Sendan yaxshilikning hammasini, xozirdagisini ham, kelajakdakisini ham so'rayman va gunohim uchun Senga istig'for aytaman. Ey rahm qiluvchilarning rahmlisi, Sendan rahmatingni so'rayman. Ey Rabbim, mag'firat qil, rahm ayla va mendagi bilgan narsalaringni kechib yubor. Albatta Sen biz bilmaydigan narsani bilasan. Albatta, Sen aziz va karamli zotsan. Rabbim, ilmimni ziyoda qil, meni hidoyat qilganingdan keyin qalbimni burib qo'yma. Huzuringdan men uchun rahmat ato qil. Albatta Sen ko'p ato qilguvchisan. Allohim, meni eshitishligimda va ko'rishligimda salomat qil. Hech iloh yo'q, magar Sen borsan. Allohim men Sen bilan qabr azobidan panohlanaman. **«Sendan boshqa iloh yo'q. Ey pok Parvardigor, albatta, men (o'z jonimga) zulm qiluvchilardan bo'ldim».**

Allohim, men Sen bilan kufr va faqirlikdan panohlanaman. Allohim, men Sening roziliging bilan g'azabingdan va ofiyating bilan, azobingdan panohlanaman. Sen bilan O'zingdan panohlanaman. Sen loyiq bo'lganingchalik senga hamd ayta olmayman. Rozi bo'lguningcha Senga hamd bo'lsin. **«Albatta Safo va Marva Alloh (buyurgan) marosimlardandir. Bas, kim haj yoki umra qilsa, u ikki tog` orasida sa'y qilishining gunohi yo'qdir. Va kim o'z ixtiyori-la yaxshilikni niyat qilsa, bas, albatta Alloh shukr qilguvchi (taqdirlovchi) va bilguvchidir».**

### **To'rtinchi shavt duosi**

*«Allohu akbaru, Allohu akbaru, Allohu akbaru, valillahil hamdu. Allohmma inniy as`aluka min xoyri ma ta'lamu va a'uuzu bika min sharri ma ta'lamu va `astag'firuka min kulli ma ta'lamu innaka antal `allamul g'uyuubi, la ilaha illallohul malikul haqqul*

*mubiy nu muhammadun rosulullohis sodiqul va'dul amiyn. Allohumma inni as'aluka kama hadaytaniy lil'islami alla tanzi'ahu minniy hatta tatavaffaniy va'ana muslimun. Allohummaj'al fiy qolbiy nuuron vafiy sam'iy nuuron vafiy basoriy nuuron, Allohum mashroh liy sodriy vayassir li amriy va a'uuzu bika min sharri vasavisissodri, vashatatil amriy, vafitnatil qobri, Allohumma inniy a'uuzu bika min sharri ma yaliju fillayli va sharri ma yaliju finnahari, vamin sharri ma tahubbu bihirriyahu ya arhamarrohimiyn, subhanaka ma 'abadnaka haqqo 'ibadatika ya Allohu subhanaka ma zakarnaka haqqo zikrika ya Allohu. Robbig'fir varham vatajavaz 'amma ta'lam, innaka ta'lamu mala na'lamu innaka antal `a'azzul akromu. **(Innassofa val marvata min sha'a`irillahi faman hajjal bayta avi'tamaro fala junaha alayhi ay yattovvafa bihima vaman tatovva'a xoyron fa`innalloha shakirun `aliymun)**».*

Alloh ulug'dir, Alloh ulug'dir, Alloh ulug'dir, hamd Alloh uchundir. Allohim, Sen biladigan narsaning yaxshiligini Sendan so'rayman, Sen biladigan narsaning yomonligidan Sendan panoh so'rayman. Sen biladigan har bir narsadan istig'for so'rayman. Albatta Sen g'ayb narsalarni bilguvchi Zotdirsan. Hech iloh yo'qdir, magar Malik, Haq va Mubiy bo'lgan Alloh bordir. Muhammad Allohning ishonchli, va'dasi rost elchisidir. Allohim, men Sendan so'raymanki, meni Islomga hidoyat qilganingdek, toki musulmon holatda vafot etgunimcha uni mendan tortib olmagin.

Allohim, qalximni nurli qilgin, qulog'imni nurli qilgin, ko'zimni nurli qilgin. Allohim dilimni keng qilgin va ishimni oson qilgin. Va qalbning vasvasalari yomonligidan, ishlarni to'zg'ib ketishligidan, qabr fitnasidan, Allohim, panoh so'rayman.

Allohim, men Sendan tunda tushadigan narsaning yomonligidan va kunduzi tushadigan narsaning yomonligidan, shamol bilan keladigan narsaning yomonligidan panoh so'rayman, ey rahm qiluvchilarning rahmlirog'i!

Allohim Sen poksan. Ey Alloh, Senga haqiqiy bandachilik qila olmadik. Ey Allohim, Sen poksan, biz Sening haqiqiy zikringni qila olmadik, ey Alloh.

Rabbim, mag'firat qil va rahm qil, afv et mukarram qil va bilgan narsalaringni kechib yubor. Albatta Sen biz bilmagan narsalarni bilasan. Albatta Sen aziz, akram Allohdirsan.

**«Albatta Safo va Marva Alloh (buyurgan) marosimlardandir. Bas, kim haj yoki umra qilsa, u ikki tog' orasida sa'y qilishining gunohi yo'qdir. Va kim o'z ixtiyori-la yaxshilikni niyat qilsa, bas, albatta Alloh shukr qilguvchi (taqdirlovchi) va bilguvchidir.»**

### **Beshinchi shavt duosi**

*«Allohu akbaru, Allohu akbaru, Allohu akbaru, valillahil hamdu. Subhanaka ma shakarnaka haqqo shukrika ya Allohu, subhanaka ma a'laa sha`nuka ya Allohu, Allohumma habbib ilaynal iymana vazayyinhu fiy qulubina va karrih ilaynal kufro valfusuqo val'isyana vaj'alna minarroshidiyina. Robbig'fir varham vatajavaz `amma ta'lam, innaka ta'lamu mala na'lamu innaka antal `a'azzul akromu. Allohumma qiniy `azabaka yavma tab'asu `ibadaka, Allohummahdiniy bilhuda vanaqqiniy bittaqva, vag'fir li fil axiroti val uulaa, Allohum mabsut `alayna min barokatika varohmatika vafazlika*

*varizqika. Allohumma inni as`alukan na`iymal muqiy mallaziy la yahuulu va la yazuulu abadan. Allohummaj`al fiy qolbiy nuuron vafiy sam`iy nuuron vafiy basoriy nuuron, vafiy lisaniy nuuron, va `ayyamiy niy nuuron, vamin favqiy nuuron, vaj`al fiy nafsiy nuuron, va`azzim liy nuuron. Robbishrohliy sodriy va yassirli amriy. **(Innassofa val marvata min sha`a`irillahi faman hajjal bayta avi`tamaro fala junaha alayhi ay yattovvafa bihima vaman tatovva`a xoyron fa`innalloha shakirun `aliymun)**».*

Alloh ulug`dir. Alloh ulug`dir, Alloh ulug`dir, hamd Alloh uchundir. Sen poksan Ey Alloh, biz haqiqiy shukringni ado etolmadik. Sen poksan, sha`ning qanchalar oliy, ey Alloh!

Allohim, bizlarga iymonni sevdiringin va qalbimizda uni ziynatlagin va bizlarga kufрни, fosiqlikni va osiylikni yomon ko`rsatgin va bizlarni to`g`ri yo`lda yuruvchilardan qilgin.

Rabbim, mag`firat qil va rahm qil, afv qil, mukarram qil va bilgan narsalaringni kechib yubor. Albatta biz bilmagan narsalarni bilasan. Albatta Sen aziz, akram Allohdirsan.

Allohim, bandalaringni qayta tiriltiradigan kuningdagi azobingdan meni saqlagin. Allohim, hidoyat bilan meni hidoyatlantirgin. Va taqvo bilan meni soflagin. Meni avvalda va oxiratta mag`firat qilgin, Allohim, rizqingdan, fazlingdan, rahmatingdan, barakotingdan bizlarning ustimizga yoygin.

Allohim, men Sendan abadiy zavol topmaydigan, o`zgarmaydigan muqim ne`matlarni so`rayman. Allohim, qalbinni nurli qilgin, qulog`imni nurli qilgin, ko`zimni nurli qilgin, tilimni nurli qilgin. O`ng tarafimni nurli qilgin, ustimni nurli qilgin, nafasimni nurli qilgin va nurimni katta qilgin. Rabbim, qalbinni keng qilgin va ishimni oson qilgin.

**«Albatta Safo va Marva Alloh (buyurgan) marosimlardandir. Bas, kim haj yoki umra qilsa, u ikki tog` orasida sa`y qilishining gunohi yo`qdir. Va kim o`z ixtiyori-la yaxshilikni niyat qilsa, bas, albatta Alloh shukr qilguvchi (taqdirlovchi) va bilguvchidir».**

## **Oltinchi shavt duosi**

*«Allohu akbaru, Allohu akbaru, Allohu akbaru, valillahil hamdu. La ilaha illallohu vahdahu, sodaqo va`dahu, vanasora `abdahu va hazamal ahzaba vahdahu, la ilaha illallohu va la na`budu illa iyyahu muxlisiyna lahuddiyna valav karihal kafiruun. Allohumma inniy as`alukal huda vattuqo val`afafa valg`inaa. Allohumma lakal hamdu kallaziy naquulu vaxoyro mimma naquulu. Allohumma inniy as`aluka rizoka valjannata vaa`uuzu bika min saxotika vannari va ma yuqorribuniy ilayha min qovlin av fi`lin av `amalin, Allohumma binuurika ihtadayna vabifazlika istag`nayna vafiy kanafika va `in`amika va `atoika va `ihsanika asbahna va `amsayna. Antal avvalu fala qoblaka shay`un, val`aaxiru fala ba`daka shay`un, vazzohiru fala shay`un favqoka, valbatinu fala shay`un duunaka, na`uuzu bika minal falasi valkasali va`azabil qobri vafitnatil g`inaa, vanas`alukal favza biljannati. Robbig`fir varham vatajavaz `amma ta`lam, innaka ta`lamu mala na`lamu innaka antal `a`azzul akromu. **(Innassofa val marvata min sha`a`irillahi faman hajjal bayta avi`tamaro fala junaha alayhi ay yattovvafa bihima vaman tatovva`a xoyron fa`innalloha shakirun `aliymun)**».*

Alloh ulug`dir, Alloh ulug`dir, Alloh ulug`dir, hamd Alloh uchundir. Hech iloh yo`q, magar yolg`iz Alloh bordir. Uning va`dasi rost bo`ldi, U bandasiga yordam berdi va guruhlarini yolg`iz o`zi yengdi. Hech iloh yo`q, magar Alloh bordir. Dinda Uning uchun xolis turgan holatda, faqat Uning o`zigagina ibodat qilamiz, agarchi kofirlar yomon ko`rsalar ham. Allohim, men Sendan hidoyat, taqvo, iffat va boylikni so`rayman. Allohim, Senga biz aytayotganimizdek va aytayotganimizdan ham yaxshiroq hamd bo`lsin. Allohim, men Sendan roziligingni va jannatni so`rayman va g`azabingdan, do`zaxdan va unga yaqinlashtiruvchi so`z, fe'l va yoki amal kabi narsalardan panoh so`rayman.

Allohim, Sening nuring bilan hidoyatlandik. Va Sening fazling bilan behojat bo`ldik. Sening g`amxo`rligingda, in`omingda, atoningda va ehsoningda tong ottirdik va kech qildik. Sen avvalsan, Sendan avval hech narsa yo`q. Oxirsan, Sendan keyin hech narsa yo`q. Zohirsan, Sening ustingda hech narsa yo`q, Botinsan, Sensiz hech narsa yo`q. Sendan sinishlik, dangasalik, qabr azobi va boylik fitnasidan panoh so`raymiz. Va Sendan jannatni qozonishni so`raymiz.

Rabbim, mag`firat qil va rahm qil, afv et, mukarram qil va bilgan narsalaringni kechib yubor. Albatta biz bilmagan narsalarni bilasan. Albatta, Sen aziz, akram Allohdirsan.

**«Albatta Safo va Marva Alloh (buyurgan) marosimlardandir. Bas, kim haj yoki umra qilsa, u ikki tog` orasida sa'y qilishining gunohi yo`qdir. Va kim o'z ixtiyori-la yaxshilikni niyat qilsa, bas, albatta Alloh shukr qilguvchi (taqdirlovchi) va bilguvchidir».**

### Yettinchi shavt duosi

*«Allohu akbaru, Allohu akbaru, Allohu akbaru kabiyron, valhamdu lillahi kasiyron. Allohmma habbib ilayyal iymana vazayyinhu fiy qolbiy vakarrih ilayyal kufro valfusuuqo val`isyana vaj`alniy minarroshidiyna. Robbig`fir varham vatajavaz `amma ta`lam, innaka ta`lamu mala na`lamu innaka antal `a`azzul akromu. Allohummxtim bilxoyroti aajalana vahaqqiq bifazlika aamalana vasahhil libulug`i rizoka subulana vahassin fiy jamiy`il ahvali a`malana, ya munqizal g`orqo ya munjiyal halka, ya shaahida kulla najva, ya muntaha kulla shakvaa, ya qodiymal ihsani ya da`imal ma`ruufi, ya man la g`inaa bishay`in `anhu vala budda likulli shay`in minhu, ya man rizqu kulli shay`in `alayhi va masiyo kulli shay`in ilayhi, Allohmma inniy `a`izun bika min sharri ma a`toytana va min sharri ma mana`tana. Allohmma tavaffana muslimiyna va alhiqna bissolihiyana g`oyro xozayaa vala maftuuniyna. Robbi yassir vala tu`assir, robbi atmim bilxoyri. **(Innassofa val marvata min sha`a` irillahi faman hajjal bayta avi`tamaro fala junaha alayhi ay yattovvafa bihima vaman tatovva`a xoyron fa` innalloha shakirun `aliymun)**».*

Alloh ulug`dir, Alloh ulug`dir, Alloh ulug`dir, hamd Alloh uchundir. Allohga ko`p hamdlar bo`lsin. Allohim, menga iymonni sevdigin va uni qalbidam ziynatlagin va menga kuforni, fosiqlikni, osiylilikni yomon ko`rsatgin va meni to`g`ri yo`lda yuruvchilardan qilgin.

Allohim, kelajagimizni xayriyat bilan tamomlagin. Fazling bilan orzularimizni ro`yobga chiqargin va Sening roziligingga yetish uchun yo`limizni oson qilgin va hamma holatlarda ham amallarimizni chiroyli qilgin. Ey cho`kayotganlarni qutqaruvchi, ey halok bo`layotganlarga najot beruvchi, ey har bir sirga shohid bo`luvchi, ey har bir shikoyat

yetib boruvchi, ey avvaldan ehson etuvchi, ey doimo yaxshilik qiluvchi, ey hech bir narsa undan behojat bo'lmagan va har bir narsa uchun zarur bo'lgan zot. Ey har bir narsaning rizqi zimmasida bo'lgan va har bir narsaning qaytishi unga bo'lgan zot. Allohim, Sen bizga bergan va man' qilgan narsalaring yomonligidan, Sen bilan panohlanaman. Allohim, bizlarni musulmon holatda vafot ettirgin va solihlar bilan birga qilgin, sharmanda bo'lgan va fitnalanganlar bilan emas. Rabbim, (ishlarimni) oson qilgin, qiyin qilmagin, Rabbim, xayriyat bilan tamomlagin.

Rabbim mag'firat qil va rahm qil, afv qil, mukarram qil va bilgan narsalaringni kechib yubor. Albatta biz bilmagan narsalarni bilasan. Albatta, Sen aziz, akram Allohdirsan.

**«Albatta Safo va Marva Alloh (buyurgan) marosimlardandir. Bas, kim haj yoki umra qilsa, u ikki tog' orasida sa'y qilishining gunohi yo'qdir. Va kim o'z ixtiyori-la yaxshilikni niyat qilsa, bas, albatta Alloh shukr qilguvchi (taqdirlovchi) va bilguvchidir».**

### **Sa'y tamom bo'lganidan so'ng o'qiladigan duo**

*«Robbana taqobbal minna va 'aafina va'fu 'anna va'ala to'atika vashukrika a'inna va'ala g'oyrika la takilna va'alal iymani val islamil kamili jamiy'an tavaffana va `anta rozin 'anna, Allohummarhamniy bitarkil ma'aasiy abadan ma abqoytaniy varhamniy an atakallafa mala ya'niyniy varzuqniy husnannazori fiyma yurziyka 'anniy ya arhamarrohimiyana».*

Rabbimiz, bizdan qabul etgin va bizlarni ofiyatda qil. Bizlarni afv et. Toatingga va shukringga bizlarni muvaffaq qilgin va o'zingdan boshqaga bizlarni tashlab qo'yma. Bizlarning hammamizni komil iymonda, islomda va bizdan rozi bo'lgan holatingda vafot ettirgin. Allohim, umrimning oxirigacha ma'siyatlarni abadiy tark qilishlik bilan menga rahm qilgin. Va meni foydasi bo'lmagan narsada qiynalishimdan asrab, rahm qil. Va Seni rozi qiladigan narsada chiroyli ko'rinish bilan meni rizqlantirgin, ey rahm qiluvchilarning rahmlirog'i!

### **Umra niyati**

*«Allohumma inniy uriydul 'umrota fayassirha liy, vataqobbalha minniy, navvaytul 'umrota va `ahromtu biha lillahi ta'aala 'azza vajalla».*

Allohim, umra qilishni xohladim, bas, uni men uchun oson qilgin va uni mendan qabul qilgin. Umrani niyat qildim, Alloh taolo azza va jalla uchun umraga ehrom bog'ladim.

### **Haj niyati**

*«Allohumma inniy uriydul hajja fayassirhu liy, vataqobbalhu minniy, navvaytul hajja va `ahromtu bihi lillahi ta'alaa 'azza va jalla. Labbaykallohumma labbayka, labbayka la shariyka laka labbayka, innal hamda vanni'mata laka valmulka, la shariyka laka. Allohumma ahromu laka sha'riy va bashariy, vajasadiy vajamiy'a javarihiy minattiybi*

*vannisaa`i vakulli shay`in harromtahu`alal muhrimi abtag`iy bizalika vajhakal kariyma ya robbal`alamiyna».*

Allohim, men haj qilishni hohladim, bas, uni men uchun oson etgin va uni mendan qabul qilgin. Hajni niyat qildim, Alloh taolo azza va jalla uchun hajga ehrom bog`ladim.

Labbay senga Allohim, labbay, Senga. Albatta hamd, ne`mat va mulk senikidir. Sening sheriging yo`qdir. Allohim, Sening uchun sochim, yuzim, jasadim va jamiki a`zolarim hushbuylardan, ayollardan va ehromdagi kishi uchun harom qilganing jamiki narsalardan ehromli bo`ldi. Bu bilan Sening Karim vajhingni istayman, ey olamlarning Rabbisi!

## **Ehromda qilish harom bo`lgan amallar**

Har bir haj yoki umra uchun va yoki ikkisiga ehrom bog`lagan kishiga quyidagi amallarni qilishlik harom bo`ladi. Ulardan birini qilib qo`ygan kishiga aybining kafforoti uchun quyidagilardan birini bajarishlik vojib bo`ladi:

## **Arafotda o`qiladigan duo**

(Agar hoji namozni jam` qilishligi joiz bo`lgan kishilardan bo`lsa, Quyosh zavolidan keyin, peshin va asrdan keyin quyidagi duoni o`qiydi).

Payg`ambar (s.a.v.)ning sahrodagi o`rinlari bo`lmish Rahmat tog`i ostida turadi. Arafotning "Batni urna" degan joyidan boshqa hamma joyi mavqif (Arafotda turish o`rni)dir. Hoji bu yerda duo qiladi. Keyingi betlarda kelgan duolarni ko`proq aytadi.

*«La ilaha illallohu vahdahu la shariyka lahu, la hul mulku valahul hamdu yuhyiy va yumiytu va huva`ala kulli shay`in qodiy. Allohmma innaka vaqoftaniy vahamaltaniy`ala ma saxxorta liy hatta ballag`taniy bi`ihsanika ila ziyoroti baytika val vuqufi`inda hazal mash`aril`aziymi iqtida`an bisunnati xoliylka vaqifan bi`aasari xiyarotika min xolqika sayyidina muhammadin sollallohu alayhi vasallama vainna likulli zoyfin qiroo valikulli vafdin ja`izatan, valikulli za`irin karomatan valikulli sa`ilin`atiyyatan, valikulli rojin savaban, valikulli multamisin lima`indaka jaza`an valikulli rog`ibin ilayka zulfa, valikulli mutavajjihin ilayka ihsanan. Vaqod vaqofna bihazal mash`aril`aziymi raja`an limaa`indaka fala tuxayyib ilaahana rojaa`ana fiyka ya sayyidana ya mavlana ya man xoza`at kullul ashya`i li`izzatihi va`anatil vujudu li`azomatihi. Allohmma ilayka xorojna, vabifana`ika anaxna vaiyyaka ammalna vama`indaka tolabna vali`ihsanika ta`arrozna valirohmatika rojavna vamin`azabika ashfaqna valibaytikal haroma hajajna. Ya may yamliku hava`ijassa`iliyna, vaya`lamu zoma`irossomitiyna. Ya man laysa ma`ahu robbun yud`aa vala ilaha yurjaa, vala favqohu xoliqu yuxshaa, vala vaziyrun yu`taa va la hajibun yurshaa ya man yazdadu`alassu`aali illa karoman va juudan va`ala kasiyrotil hava`iji illa tafazzulan va ihsanan. Ya man zojjat bayna yadayhil asvatu bilug`otin mutaxolifaatin, yas`aluunakal hajaati, vasukibatid dumuu`u bil`abaroti vazzafaroti, mulihhiyna bid`avaati, fahajatiy ilayka ya robbi mag`firotuka varizon minka`anniy, la suxta ba`dahu, va hudan la zolala ba`dahu, va`ilmun la jahla ba`dahu, vahusnil xotimati, val`itqu minannari, valfavza biljannati, va`an tazkuroniyy`indal bala`i iza nasiyaniy ahluddunya, va varonit turobu, vanqota`a`annil ahabu, vataqotto`at biyal*



*'asbaabu ya 'aziyzu, ya vahhaabu, ya arhamarrohimiyana. Allohumma innaka taroo makaniy vatasma'u kalamiy vata'lamu sirriy va'alaniyyatiy, vala yaxfa 'alayka shay`un min amriy, anal ba`isul faqiyrul mustag'iysul vajiylu, almushfiqul muqirru mu'tarifu bizanbihi, as`aluka mas`alatal miskiyni, va`abtahilu ilayka ibtihalal muznibizzaliyli va ad'uuka du'aa`al xo`ifizzoriyri, du'aa`a man xoza'a laka 'unuquhu, vazalla laka jasaduhu vafaazat laka 'aynahu, varog'ima laka anfuhi, vala taj'alniy robbiy shaqiyyan va kun biy robbi ro`uufan rohiyman, ya xoyrol mas`uuliyana va ya xoyrol mu'tiyna, robbihdina bilhudaa vazayyinna bittaqvaa vag'fir lana fil`aaxiroti val`uulaa. Allohummaj'al fiy qolbiy nuuron vafiy sam'iy nuuron vafiy basoriy nuuron, vafiy lisaniy nuuron, va'ay yamiyniy nuuron, va 'ay yasariy nuuron, vamin favqiy nuuron, vamin xolfiy nuuron, vaj'al fiy nafsiy nuuron va'azzim liy nuuron, robbishroh liy sodriy vayassir liy amriy, allohumma inniy as`alukal hudaa vattuqo val'afafa valg'inaa, allohumma lakal hamdu kallaziy naquulu va xoyro mimma naquulu, allohumma inni as`aluka rizoka valjannata, vaa'uuzu bika min saxotika vannari, vama yuqorribuniy ilayha min qovlin av fi'lin av 'amalin. Allohummaj'alhu hajjan mabruuron, vazanban mag'fuuron va'amalan solihan maqbuulan, robbana atina fiddunya hasanata vafil`axiroti hasanata vaqina 'azabannar, ilahiy la quvvata liy 'ala saxotika vala sobro liy 'ala 'azabika vala g'inaa liy 'an rohmatika va la quvvata liy 'alal bala`i vala toqota liy 'alal juhdi, a'uvzu birizoka min saxotika vamin fuja`ati niqmatika, ya amaliy va ya raja`iy ya xoyro mustag'osin, va ya ajvadal mu'tiyna ya man sabaqot rohmatuhu g'ozabahu, ya sayyidiy va mavlaaya ya siqotiy va roja`iy va mu'tamidiy, allohumma ya man la yashg'uluhi sam'un`an sam'in, vala tashtabihu 'alayhil asvatu, ya man la tashtabihu alayhil masa`ilu, vala taxtalifu 'alayhil lug'otu, ya man la yubrimuhu ilhahul mulihhiyna vala tu'jizuhu mas`alatas sa`iliyna, aziqna barda afvika vahalavata mag'firotika ya arhamarrohimiyana. Allohumma inniy qod vafadtu ilayka, vavaqoftu bayna yadayka fiy hazal mavzi'ish shariyfi rajaa`an lima`indaka, fala taj'alniyl yavma axyaba vafdika fa`akrimniy biljannati vamunna alayya bilmag'firoti val`afiyati, va`ajirniy minannari vadro`'anniy sharro xolqika, inqota`ar rojaa`u illa minka va ug'liqotil abvabu illa babaka, fala takilniy ila ahadin sivaka fiy umuuri diyiniy vadunyaaya torfata 'ayniy, vala aqolla min zalika, vanqulniy min zullil ma'siyati ila 'izzatit to'ati, vanavvir qolbiy vaqobriy, va`a'izniy minashsharri kullih, vajma`liyal xoyro kullahu ya akromal man su`ila, va`ajvada man a'to. Allohumma binuurika ihtadayna, vabifazlika istag'nayna, vafiy kanafika va`in'aamika va'ato`ika va`ihsanika asbahna va amsayna, antal avvalu fala shay`a qoblaka, val`axiru fala shay`a ba'daka vazzohiru fala shay`a favqoka, valbatinu fala shay`a duunaka, na'uuzu bika minal falasi valkasali va'azabil qobri vafitnatil g'inaa as`aluka muujibati rohmatika va'aza`ima mag'firotika, valg'onimata min kulli birrin vassalamata min kulli ismin valfavza biljannati vannajata minannari, Allohumma ya`alimal xofiyyaati vava saami'al asvati, ya ba'isal amvati, ya mujiybad da'avati, ya qoziyal hajaati, ya xoliqol arzi vassamavaati antallohullaziy la ilaha illa antal vahidul ahadul fardus somadul vahhabullaziy la yabxolu, valhaliymullaziy la ya'jalu, la roodda li`amrika, vala mu'aqqiba lihukmika, robbu kulli shay`in, vamaliyku kulli shay`in, vamuqoddiru kulli shay`in, as`aluka an tarzuqoniy`ilman nafi'an varizqon vasi'an, vaqolban xoshi'an valisanan zakiron, va'amalan zakiyyan vaiymanan xolison, vahab lana inabatal muxlisiyna, vaxushuu'al muxbitiyna, vaa'malas solihiyana, vavaqiynas sodiqiyna, vasa'adatal muttaqiyna vadarojatal fa`iziyna, ya afzola man qusida, vaakroma man su`ila, vaahlama man a'too, ma ahlamaka`ala man`asooka va`aqrobaka ila man da'ooka, va`a'tofaka`ala man sa`alaka, la mahdiyya illa man hadayta, vala zoolla illa man zolalta va la g'oniyya illa man ag'nayta, vala faqiyro illa man afqarta, vala ma'suuma illa man'asomta, vala mastuuro illa man satarta, as`aluka an tahiba lana*

jaziyla 'atoika, vassa'aadata biliqoo`ika, valmazyida min ni'amika, va`aalaa`ika, va an taj'ala lana nuuron fiy hayaatina, vanuuron fiy hashrina, vanuuron fiy mamatina, va nuuron fiy quburina vanuuron natavassalu bihiy ilayka, vanuuron nafuuzu bihiy ladayka fa`inna bibabika saa`iluuna, vabinavalika mu'tarifuuna, valiliqoo`ika rojuuna, Allohummaj'al xoyro`umriy aaxirohu, vaxoyro`amaliy xavatimahu.

Vaxoyro ayyaamiy yavma liqoo`ika, Allohumma sabbitniy bi`amrika, vaayyidniy binasrika varzuqniy min fazlika, vanajjiniy min`azabika, yavma tab'asu`ibadaka, faqod ataytuka lirohmatika rojiyan, va'an vatoniya naa`iyan, valinusukiya mu`addiyan, valifaro`izika qooziyan, valikitabika taliyan, valaka daa'iyan valiqosvati qolbiy shakiyan, vamin zanbiy xoshiyan, valinafsiy zoliman, vabijurmiy`aliman, du'aa`a man jumi'at`uyuubuhu, vakasurot zunuubuhu, vatasorramat aamaluhu, vabaqiyat aasamuhu, vansalabat dam'atuhu, vanqota'at muddatuhu, du'aa`a man la yajidu linafsihi g'ofiron g'oyroka, vala lima`muulihi minal xoyrooti mu'tiyan sivaaka, vala likasrihi jabiron illa anta ya arhamar rohimiy, vala havla vala quvvata illa billahil`aliyyil`aziym, Allohumma la tuqoddimniy li'azabika, vala tu`axxirni lishay`in minal fitani, mavlaya haa ana ad'uuka rog'iban va`ansubu ilayka vajhiy toliban, va`azo'u laka xoddiy mahiyan rohiban, fataqobbal du'aa`iy, va`aslihil fasada min amriy, vaqto`minaddunya hammiy va hajatiy, vaj'al fiyma`indaka rog'batiy, vaqlibniy munqolabal mazkuuriyina`indakal maqbuuli du'aa`uhum alqo`imati hujjatuhum, almag'fuuri zambuhum, almabruuri hajjuhumi, almahtuutoti xotoyaahum, almamhuvvati sayyi`aatihim, arroshidi amrihim, munqolaba man la ya'siy laka amron, vala ya`tiy ba'dahu ma`saman vala yahmilu ba'dahu vizron, munqolaba man`azazta bizikrika lisanahu, vatohharot minal adnasi badanahu, vastavda'tal hudaa qolbahu vasharohta bil`islami sodrohu va`aqorta birizoka va`afvika qoblal mamati`aynahu, va`afafta`anil ma`sami basorohu, vasta'malta fiy sabiylika nafsahu, va as`aluka alla taj'alaniy ashqoo xolqika, almuznibiyna`indaka, vala axyabar rojiyna ladayka vala ahromal aamiliyina lirohmatika, vala axsarol munqolibiyna min hazal mavqifil`aziym, mavlaaya robbal`alamiyn. Allohumma vaqod da'avtuka bid du'aa`illaziy`allamtaniyhi, fala tahrimniy minar rojaa`illaziy`arroftaniyhi, ya man la tanfa'uhut to'atu vala tazurruhul ma'siyatu, vama a'toytaniy mimma uhibbu faj'alhu liy`avnan fiyma tuhibbu vaj'alhu liy xoyron, vahabbib to'ataka liy, val'amala biha kama habbibtaha ila avliya`ika hatta roav savabaha, vakama hadaytaniy lil`islami fala tanzihu minniy hatta taqbizaniy ilayka va`ana`alayhi. Allohumma habbib ilayyal iymana vazayyinhu fiy qolbiy va karrih ilayyal kufro valfusuqo val'isyana vaj'alniy minarroshidiyn.

Allohummaxtim bilxoyrooti aajalana, vasahhil libuluug`i rizoka subulana vahassin fiy jamiy'il ahvali a'malana ya munqizal g'orqoo, ya munjiyal halkaa, ya shaahida kulla najva, ya muntaha kulla shakva, ya qodiymal`ihsani, ya da`imal ma'ruufi, ya man la g'inan bishay`in`anhu va la budda likulli shay`in minhu, ya man rizqu kulli shay`in`alayhi, vamasiyro kulli shay`in ilayhi, ilayka rufi'at aydissa`iliyina vamtaddat a'naqul`abidiyina, nas`aluka an taj'alana fiy kanafika vajuudika vahirzika va'iyazika va satrika va`amaanika. Allohumma inna na'uuzu bika min juhdil balaa`i va darokish shaqoo`i, vashamatatil a'daa`i vasuu`il manzori, val munqolabi fil ahli val mali valvalad. Allohumma la tada' fiy maqomina haza zanban illa g'ofartahu, vala hamman illa farrojtahu, vala g'o`iban illa rodattahu vala karban illa kashaftahu, vala daynan illa qozoytahu, vala`aduvvan illa kafaytahu, vala fasadan illa aslahtahu, vala mariyzon illa aafaytahu, vala xollatan illa sadattahu, vala hajatan min havaa`ijiddunya val axiroti laka fiyha rizon valana fiyha solahun illa qozoytaha fa`innaka tahdis sabiyli, vatajburul kasiyro va tug`nil faqiyro. Allohumma innahu la budda min liqo`ika, faj'al`indaka`uzrona maqbuulan, va zanbana mag'fuuron, va'ilmana mavfuuron, vasa'yana mashkuuron,

asbaha vajhiyal faniy mustajiyron, bivajhikal baqiy alqoyyumi zil 'izzati valjabaruuti, Allohumma la yamna'uniy minka ahadun iza arottaniy vala yu'tiyniy ahadun iza haromtaniy, fala tahrimniy biqillati shukriy, vala taxzilniy biqillati sobriy, Allohummaj'alil mavta xoyro g'oo`ibin nantaziruhu, valqobro xoyro baytin na'muruhu vaj'al ma ba'dahu xoyron lana minhu. Robbig'fir liy valivalidayya vali`abnaa`iy vali`ixvaaniy vali`ahli baytiy va zurriyatiy, valilmu`miniyna valmu`minaati valmuslimiyna valmuslimati, al`ahyaa`i minhum val`amvaati. Allohumma inniy as`aluka iymanan yubashiru qolbiy, vayaqiynan sodiqon hatta a'lamu annahu la yusiybuniy illa ma katabta liy va rozziniy biqozo`ika, va`a'inni'yaladdunya bil'iffati valqonaa'ati, va'aladdiyni bitto'ati vatohhir lisaniy minal kizbi, vaqolbiy minannifaqi, va'amaliy minarriyaa`i, vabasoriy minalxiyanati fa`innaka ta'lamu xo`inala`a'yuni vama tuxfissuduur.

Allohummarham g'urbatiy fiddunya va masro'iy`indal mavti vavahshatiy fiy qobriy vamaqomiy bayna yadayka. Allohumma antas salam vaminkas salam tabarokta vata'alayta ya zal jalali val ikrom. Allohumma antal maliku la ilaha illa anta vaana`abduka zolamtu nafsiy va'taroftu bizunuubiy fag'firliy zunuubiy fa innahu la yag'firuzzunuba illa anta, vag'diniy liahsanil axlaqi fala yahdiy liahsaniha illa anta vasrif`anniy sayyiataha fainnahu la yasrifu sayyiataha illa anta labbayka vasa'dayka valxoyro kulluhu biyadayka va atuubu ilayka. Allohumma ahyiniy ma`alimtal hayata xoyron liy vatavaffaniy iza`alimtal vafata xoyron liy vahdiniy liarshadi amriy va ajirniy min sharri nafsiy. Allohumma ahsin`aqibatana fil umuuri kulliha va ajirniy min xizyiddunya va'azabil axiroti varham g'urbatiy fiddunya vamasro'iy`indal mavti vavahdatiy filqobriy vamaqomiy bayna yadayka. Allohumma inniy asaluka biasmaikat toyyibit tohiril mubarakil ahabbi ilaykallaziy iza du'iyta bihi ajabta va izasturhimta bihi rohimta va izastufrijta bihi farrojta an tu'iyzaniy minal kufri valfaqri valqillati vazzillati val'illati vakaaffatil amrozi val ag'rozi vasairil asqomi val aalaami, va asaluka favatihal xoyri va xovatimahu va javami'ahu va avvalahu va axirohu va zohirohu va batinahu vad darojatil`ulaa. Allohumma inniy asaluka farojan qoriban va nasron`aziyzan va sobron jamiylan va fathan mubiynan va`ilman kasiyron nafi'an va rizqon vasi'an mubarakan fiy`afiyatin bila balain va asalukal`afiyata min kulli baliyyatin va asaluka tamamal`afiyati vashshukri`alal`afiyati. Allohummaqsim li min xoshyatika ma tahuulu bihi bayniy vabayna ma'siyatika vamin to'atika ma tuballag'uniy bihi jannataka vamin al yaqiyni ma tuhavvinu bihi`alayya masoibad dunya vamatti'niy, Allohumma bisam'iy va basoriy va diyniy vaj'alhal varisa minniy vaj'al sa`riy`ala man zolamaniy vansurniy`ala man`adaniy vala taj'alid dunya akbaro hammiy va mablag'o`ilmiy va la ilannasi masiyriy. Allohumma inniy asaluka binuuri vajhikal kariymi vasultonikal`aziymi tavbatan sodifotan va avbatan xolisotan va inabatan kamilatan va mahabbatan g'olibatan va shavqon ilayka va rog'batan fiyma ladayka va farajan`ajilan va rizqon vasi'an va lisanan rotaban bizikrika va qolban muna`aman bishukrika vabadanan hayyinan layyinan bitoatika va a'tina mala`aynun roat vala uzunun sami'at vala xotoro`ala qolbi basharin.

Allohumma inna na'uuzu minal faqri illa ilayka vaminazzulli illa laka vamin al xovfi illa minka va a'uuzu bika an aquula zuuron av ag'shaa fujuron av akuna bika mag'ruron va a'uuzu bika min shamatatil a'da`i va`uzolid daa`i va xoybatir rojaa`i va zavalin ni'ami va fujaatin niqami ya man fataha babahu lit tolibiyna va azharo g'inaahu lir rog'ibiyna va atlaqo alsinatal qosiriyna alhimna ma alhamta`ibadakas solihiyina va ayqozna min roqdatil g'ofiliyna innaka akramu mun'imin va a'azzu mu'iyinin. Allohumma inna`uyubana la tasturuha illa mahasinu`atfika va zunubana la yag'firuha illa vasi'u ihsanika va afvika vaj'alna minal muttaqiynal abrori vasluk bina sabiyla`ibadikal axyaari va alhimna rushdana va ajzil min rizvanika hazzona va la tahrimna bizunubina va la tatrudna bi'uyubina va la taqto'na min barrika vala tunassina zikroka va la tahtika`anna

*satroka vag'firlana maq tarofnahu min zunubina va'fu 'an taqsiyrona fiy to'atika va shukrika va adim lana luzumat toriyqi ilayka vahab lana nuuron nahtadiy bihi ilayka varzuqna halavata munajatika vasluk bina sabiyli marzotika vaqto' 'anna kulla ma yuba'iduna 'an xidmatika va to'atika va anqizna min darokatina va g'ofalatina va alhimna rushdana va haqqiq fiyka qosdana vasturna fiy dunyana va axirotana vahshurna fiy zumrotil muttaqiyna va alhiqna bi'ibadikas solihiyina. Allohummaj'alna minal a'immatil abrori va askinna ma'ahum fiy darol qorori va la taj'alna minal muxolifiynal fujjari va vaffiqna lihusnil iqbali 'alayka val asg'o'i ilayka val mubarodati ila xidmatika va husnil adabi fiy mu'amalatika vat taslyimi liamrika varrizo biqozo`ika vas sobri `ala bala`ika vashshukri `ala ni'ma`ika va a'izna min ahvalish shaqo`i va vaffiqna lia'mali ahlit tuqo`i varzuqnal isti'dadi liyavmil liqo`i ya man 'alayhil i'timadu val muttakilu. Allohumkanhaj bina manahijal muflihiyina va albisna xila'al iymani val yaqiyni va xussona minka bit tavfiyqil mubiyini va vaffiqna liqovlil haqqi vattiba'ihl va xollisna minal batini vabtida'ihl va kun lana mu'ayyidan va la taj'al lifajirin 'alayna yadan vaj'al lana 'ayshan rog'ldan va la tushmit bina 'aduvvan vala hasidan varzuqna 'ilman nafi'an va 'amalan mutaqobbalan va fahman zakiiyyan va tob'an sofiyyan vashifa`an min kulli da`in. Allohurma `amilna big'ufronika va amnun `alayna bifazlika va ihsanika vanajjina minannari va `afina min daril xizyi val bavari va adxilna bifazlikal jannata darol qorori vaj'alna ma'allaziyna an'amta `alayhim fiy dari rizvanika ya man zoharta ma'rifatuhu lilquluubi fala yaxfa vujuduhu va `amma jamiy'a xolqihi karomuhu va juuduhu. Allohurma la taj'al haza axiro `ahdiy min hazal mavqifil `aziymi varzuqnir rujuu'a ilayhi marrotin kasiyrotin bilutfikal `amiym, vae'alniy fiyhi muflihan marhuuman mustajabad du'aa`i fa`izan bil qobuuli varrizvani vattajavuzi valg'ufroni varrizqil halalil vasi'i vabarik liy fiy jamiy'i umuriy vama arji'u ilayhi min ahliy vamaliy va avladiy. Robbana atina fid dunya hasanatan va fil axiroti hasanatan va qina `azaban nar, vag'fir lana valivalidayna, vavalidi validayna vazurriyyatina vaixvanina va`ahlina valhaziriyna valg'o`ibiyina minal muslimiyna ajma'iyin, birohmatika ya arhamarrohimiyn, vasollallohu `ala sayyidina muhammadin va'ala aalihi va sohbihi ajma'iyin».*

Allohdan boshqa Iloh yo`q, U yolg`iz, Uning sherigi ham yo`q, butun mulk Uniki, hamd ham Unga xos, U tiriltiradi va o`ldiradi va O`zi tirikdir, o`lmaydi va U har bir narsaga qodirdir. Allohim, meni muvaffaq qilib, O`zing men uchun musaxxar qilgan narsang bilan ko`tarib, hattoki ehsoning bilan Baytingning ziyoratiga va bu Mash`arul aziymda xalilingning sunnatiga iqtido qilib, Sening yaratganlaring ichidagi yaxshilaridan bo`lgan Sayyidimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning izlariga ergashib turishlikka yetkazding. Albatta har bir mehmon uchun izzat-ikrom bordir. Har bir vakil uchun mukofot bordir. Har bir ziyoratchi uchun karomat (ikrom qilish), har bir so`rovchi uchun ato bordir. Har bir umidvor uchun savob bordir. Har bir Sening huzuringdagi narsani talab qiluvchi uchun mukofot, har bir senga rag`bat qiluvchi uchun yaqinlik bordir. Har bir Senga yuzlanuvchi uchun ehson bordir. Bu Mash`arul aziymda Sening huzuringdagi narsani umid qilib to`xtadik. Ilohimiz, Sendan umidimizni puchga chiqarmagin, Ey Sayyidimiz, Ey Mavloyimiz, ey har bir narsa uning izzati uchun bo`yinsungan va yuzlar uning azamatiga egilgan zot – Allohim, Sening uchun chiqdik. Va Sen bergan foniy umrni xazon qildik. Seni umid qildik. Sening huzuringdagi narsani talab qildik. Ehsoningga ro`baru bo`ldik. Rahmatingni umid qildik. Azobingdan qo`rqdik. Sening haram Baytingga haj qildik. Ey soillarning hojatlarga Molik va jim turuvchilarning zamirlarini biladigan zot. Ey u bilan birga duo qilinadigan robb, umid qilinadigan iloh, ustida qo`rqiladigan yaratuvchisi, (vositachi qilib) kelinadigan vaziri, pora beriladigan eshikboni bo`lmagan zot. Ey savollarga faqat karam va saxiylikni, hojatlarning ko`pligiga

faqat fazl va ehsonni ziyoda qiladigan zot. Ey oldida har xil tillarda ovozlar ko'tariladigan Zot. Ular sendan hojatlarini so'raydilar. Ko'z yoshlar tomchilari bilan duolarda muntazam bo'lgan holatda quyiladi.

Ey Rabbiiy, Sendan hojatim – Sening mag'firating va undan keyin g'azablanishing bo'lmaydigan roziliging va undan keyin adashish bo'lmagan hidoyat va undan keyin jaholat bo'lmagan ilm va chiroyli xotima, do'zaxdan ozod bo'lishlik va jannatni qozonishlik. Va sinovlanib dunyo ahli meni unutganlarida, ustimga tuproq tortganlarida, mendan ahboblar uzilganda, mendan sabablar kesilganda meni eslashligingdir. Ey Aziz, ey Vahhob, ey Rahm qiluvchilarning rahmlirog'i – Allohim, albatta Sen makonimni ko'rasan, so'zimni eshitasan, ichimni ham, tashimni ham bilasan. Mening ishlarimdan hech narsa Senga maxfiy emas. Men bechora, faqirman, Qo'rqib yordam so'rovchiman, mo'ltirab iqrora bo'lib, gunohlarimni e'tirof etuvchiman. Miskin so'raganidek Sendan o'tinaman. Gunohkor, zalilning yolvorishidek iltijo qilaman. Qo'rquvchi ko'rning duosini qilaman. Senga bo'yin eggan, jasadini Senga xor etgan, ikki ko'zi Sen uchun yig'lagan, Sen uchun burnini yerga ishqagan kishining duosi bilan duo qilaman. Ey so'raluvchilarning yaxshisi, ey beruvchilarning yaxshisi – Rabbiiy, meni badbaxtlardan qilmagin. Menga mehribon va shafqatli bo'lgin.

Rabbiiy, bizni hidoyatga yo'llagin. Bizni taqvo bilan ziynatlagin. Avvalda ham, oxiratda ham bizni mag'firat qilgin. Allohim, qalbimni ham nurli qilgin, qulog'imni ham nurli qilgin, ko'zimni ham nurli qilgin, tilimni ham nurli qilgin, o'ng tarafimni ham nurli qilgin, chap tarafimni ham nurli qilgin, ustimni ham nurli qilgin, orqamni ham nurli qilgin, o'z nafsimni ham nurli qilgin. Men uchun nurni katta qilgin. Rabbiiy, dilimni ochgin, ishimni oson qilgin. Allohim, men Sendan taqvo, iffat, boylikni so'rayman. Allohim, Senga hamd bo'lsin, huddi aytayotganimizdek, biz aytayotgandan yaxshiroq hamd bo'lsin. Allohim, roziliging va jannatni Sendan so'rayman. Va Sen bilan g'azabing va do'zaxdan panohlanaman. Va meni unga yaqinlashtiruvchi so'z, fe'l yoki amal kabi narsalardan ham panohlanaman.

Allohim, hajimni mabrur hajlardan qil. Gunohimni mag'firat etgin, amalimni solih, maqbullardan qilgin. Parvardigoro, dunyoda ham, oxiratda ham yaxshilikni ber. Do'zax azobidan bizlarni saqla. Ilohim, Sening g'azabingga menda quvvat yo'q, azobingga menda sabr yo'q. Rahmatingdan men behojat emasman. Sinovga nisbatan toqatim yo'q. Sening roziliging bilan g'azabingdan va to'satdan keluvchi intiqomingdan panohlanaman. Ey Orzuim, ey Umidim, ey yordam so'raluvchilarning yaxshisi, ey ato etuvchilarning saxiysi, ey rahmati g'azabidan avval bo'lgan zot. Ey Sayyidim, Mavloyim, ishonchim, umidim, suyanganim – Allohim, ey bir narsani eshitishlik boshqasini eshitishdan mashg'ul qilib qo'ymaydigan zot. Senga ovozlar ishtibohli (chalkash, ajratib bo'lmas) bo'lmaydi. Ey tillar ixtilofli bo'lmaydigan, so'raladigan narsalar ishtibohli bo'lmaydigan zot. Ey talab qiluvchilarning talabi bezor qilmaydigan zot va so'rovchilarning so'rovi ojiz qilmaydigan zot. Avfingning salqini bilan va mag'firatingning halovati bilan rizqlantirgin. Ey rahm qiluvchilarning rahmlirog'i – Allohim, Sening oldingga vakil bo'ldim, Sening huzuringdagi narsaga umid qilib, bu sharofatli o'rinda huzuringda turibman. Bugun meni vakillaringning noumidrog'i qilib qo'ymagin. Jannat bilan ikrom qilgin. Menga mag'firat va ofiyat bilan yaxshilik qilgin. Do'zaxdan najot bergin. Mendan maxluqlaringning yomonligini uzoq qilgin. Sendan boshqadan umid uzildi. Sendan boshqaning eshigi bekilgandir. Meni ko'z ochib-yumgunchalik muddatga va bundan oziga ham dunyoyimu dinim ishlarida o'zingdan boshqaga tashlab qo'ymagin.

Meni ma'siyat xorligidan toat azizligiga ko'chirgin. Qalbim va qabrimni nurlantirgin. Yomonlikning hammasidan asragin. Menga yaxshiliklarning hammasini jamlagin. Ey so'raladiganlarning karamlirog'i va ato qiluvchilarning saxiyrog'i – Allohim, Sening nuring bilan hidoyatlandik. Sening fazling bilan behojat bo'ldik. Sening himoyangda, in'omingda, atoyingda va ehsoningda tong ottirdik va kech qildik. Sen avvalsan, Sendan oldin hech narsa yo'q. Sen oxirsan, Sendan keyin hech narsa yo'q, Sen zohirsan, ustringda hech narsa yo'q, Sen botin (maxfiy)san, Sensiz hech narsa yo'q. Sen bilgan sinishlikdan, dangasalikdan, qabr azobidan va boylik fitnasidan panohlanamiz. Rahmating vojib qiluvchi, mag'firatingni jalb qiluvchi narsalarni, har bir yaxshilikdan g'animatni (nasibani), har bir gunohdan salomat bo'lishni, jannatni qozonishlikni, do'zaxdan najot topishlikni Sendan so'rayman.

Allohim, ey maxfiy narsalarni biluvchi, ey tovushlarni eshituvchi, ey o'liklarni tiriltiruvchi, ey duolarni ijobat qiluvchi, ey hojatlarni ravo qiluvchi, ey Yer va Osmonlarning yaratuvchisi, O'zingdan boshqa iloh bo'lmagan, biru yakka Allohdirsan. Yakkasan, behojatsan. Baxillik qilmaydigan Vahhobsan (ko'p hiyba, hadya qiluvchi). Shoshilmaydigan Halim Zotdirsan. Sening amringni rad qiluvchi yo'qdir. Sening hukmingni ta'qib qiluvchi yo'qdir. Har bir narsaning Rabbisan. Har narsaning podshohi, har narsaning taqdir qiluvchisan. Sendan manfaatli ilm, keng rizq, qo'rquvchi qalb, zikr qiluvchi til, pok amal va xolis iymon bilan rizqlantirishingni so'rayman. Bizga muxlislarning qaytishligini, itoatkorlarning xushu'sini, solihlarning amallarini, muttaqiylarning saodatini, foyda ko'ruvchilarning darajasini ato qilishingni so'raymiz. Ey qasd qilinadiganlarning afzalrog'i, so'raladiganlarning karamlirog'i, ato qiluvchilarning halimrog'i, Sen shundaysanki, osiy bo'lganlarga ham halimlik qilasan. Seni tashlab ketganga yaqinlashasan, Sendan so'rovchilarga g'amxo'rlik qilasan. Sen hidoyat qilganingdan boshqa uchun hidoyat yo'qdir. Sen adashtirganingdan boshqa uchun adashishlik yo'q. Sen boy qilganingdan boshqa uchun boy bo'lishlik yo'qdir. Sen faqir qilgan kishingdan boshqa uchun faqir bo'lishlik yo'qdir. Sen ma'sum qilganingdan boshqa uchun ma'sumlik yo'qdir. Sen to'sganingdan boshqa uchun to'silishlik yo'qdir. Sen bizga atoningni to'liq berishingni, Senga yo'liqish bilan saodatli bo'lishni va ne'matlaring va muruvvatingni ziyodasini so'raymiz Hayotimizda nur qilishingni va qayta tirilganimizda nur qilishingni va mamotimizda nur qilishingni va qabrimizda nur qilishingni va Senga vasila qilishimiz uchun nur qilishingni va huzuringda foyda ko'rishimiz uchun nur qilishingni so'raymiz, zero biz eshigingda soilmiz. Sening in'omingni e'tirof etuvchilarmiz. Va Senga yo'liqishni umid qilamiz.

Allohim, umrim oxirini yaxshi qilgin. Va amalimning xotimasini xayrli qilgin. Va Senga yo'liqadigan kunimni kunlarimning yaxshisi qilgin. Allohim, amring bilan meni sobit qilgin. Va nusrating bilan meni qo'llagin. Va fazling bilan meni rizqlantirgin va bandalaringni qayta tiriltiradigan kuningda menga azobingdan najot bergin. Batahqiq, oldingga rahmatingdan umid qilib, vatanimdan uzoqlashuvchi bo'lib, ibodatlarimni ado qilib, farzlaringni o'tab, kitobingni tilovat qilib, Senga duo qilib, qalbimning qattiqligidan shikoyat qilib, gunohlarimdan qo'rqib, nafsimga zulm qilib, jinoyatlarimni bilib, ayblari jam' qilingan kishining duosini, gunohlari ko'paygan, orzulari tugagan, gunohlari boqiy qolgan, ko'z yoshlari tortib olingan, muddati (berilgan umri) tugagan, Sendan boshqani o'zi uchun mag'firat qiluvchi deb bilmagan kishining, yaxshi orzulari uchun Sendan boshqa ato qiluvchi topmagan kishining, siniqlari uchun Sendan boshqa yamaydiganni topmagan kishining duosini qilib keldim, ey rahm qiluvchilarning rahmlirog'i. Oliy va Ulug' Allohdan o'zgada o'zgarish ham, quvvat ham yo'qdir.

Allohim, azobing uchun meni muqaddam qilmagin va fitnadan bo'lgan biror narsa uchun meni kechiktirmagin, Mavloim. Seni xohlab, Senga duo qilyapman. Sendan talab qilgan holatimda yuzimni Senga buryapman. Sen uchun Yuzimni haqir va qo'rqan holatda yerga qo'yayotibman. Duoimni qabul et. Ishimning fasodlarini isloh qil. Dunyodan g'amim va hojatimni kesgin. Qiziqishimni huzuringdagi narsa uchun qilgin. O'zgarishimni huzuringda zikr qilingan, duolari maqbul qilingan, hujjatlari qoim bo'lgan, gunohlari kechirilgan, hajlari mabrur bo'lgan, xatolari afv etilgan, yomonliklari o'chirilgan, ishlari to'g'rilanganlarning o'zgarishlaridan qilgin. Yana Senga borishda osiy bo'lmagan, undan keyin gunoh qilmagan, undan so'ng biron gunoh ko'tarmagan, yana zikring bilan tilini aziz qilgan va iflosliklardan badanini poklagan va Sen uning qalbiga hidoyatni solgan, Islom bilan uning ko'nglini keng qilgan va o'limdan oldin uni o'zingning afving va roziliging bilan iqrar qilganing va ko'zini gunohlardan pok saqlaganing va nafsini O'z yo'lingda ishlatganing kishining o'zgarishidan qilgin.

Men sendan gunohkor bandalaringning eng badbaxti qilmasligingni so'rayman. Ey olamlarning Rabbisi, Mavloyim, Sendan umidvorlarning ichidagi noumid bo'lishlikdan, rahmatingdan orzumandlar ichidagi mahrumlardan bo'lib qolishlikdan, bu ulug' mavze'dan qaytayotganlarning ziyonkorrog'i bo'lib qolishlikdan, panoh so'rayman. Allohim, O'zing o'rgatganingdek duo qildim, menga bildirganing bu rajodan meni mahrum qilmagin. Ey toat manfaat bermaydigan, ma'siyat zarar bermaydigan Zot. Mening yaxshi ko'rgan narsamdan menga ato etganing ashyolarni Sen yaxshi ko'rgan narsalar yo'lida men uchun yordamchi qilgin va uni men uchun yaxshilik qilgin. Men uchun toatingni va u bilan amal qilishlikni xuddi amallarining savobini ko'rgan avliyolaringga uni sevdiganingdek sevdiringin. Allohim, meni Islomga hidoyat qilganingdek, uni mendan to Sening huzuringga u bilan borgunimcha yechib olmagin.

Allohim, menga iymonni sevdiringin va qalbimda uni ziynatlagin. Menga kuforni, fisqni, ma'siyatni yomon ko'rdirgin va meni to'g'ri yo'lda yuruvchilardan qilgin. Allohim, kelajagimizni xayriyat bilan tamomlagin. Va fazling bilan orzularimizni haqiqat qilgin. Va rizoingga yetishish uchun yo'limizni oson qilgin, hamma holatlarda ham amallarimizni chiroyli qilgin. Ey cho'kayotganlarni qutqaruvchi, ey halok bo'layotganlarga najot beruvchi, ey har bir sirning shohidi, ey barcha shikoyatlar yetib boruvchi, ey ehsoni qadim bo'lgan zot, ey yaxshiligi doimiy bo'lgan zot, ey hech bir narsa usiz behojat bo'lmagan, har bir narsaga zarur bo'lgan zot. Ey har bir narsaning rizqi Uning zimmasida bo'lgan, har bir narsaning qaytish joyi Unga bo'lgan zot. Senga soillar (so'rovchilar)ning qo'llari ko'tarilgan, obidlarning bo'yinlari Senga cho'zilgandir. Bizlarni himoyangda, sahiyligingda, panohingda, to'sig'ingda, omonligingda, soyangda qilishligingni so'raymiz, Allohim. Sen bilan sinovning qiyinchiligidan, badbaxtlik ostida qolishdan, dushmanlarning ichiqoraligidan, bola, mol va ahlu ayol masalasida yomon o'zgarish va yomon ko'rinishdan panohlanamiz.

Allohim, bizning bu maqomimizda mag'firat qilinmagan gunohimizni, xal bo'lmagan g'amimizni, qaytib kelmagan g'oibimizni, yechilmagan tashvishimizni, ado etilmagan qarzimizni, tor-mor qilinmagan dushmanimizni, isloh qilinmagan fasodimizni, ofiyat berilmagan kasalligimizni, to'ldirilmagan kamchiligimizni, dinu dunyo hojatlaridan Seni rozi qiladigan, bizlarni isloh qiladigan hojatlarimizning ravo etilmaganini qoldirmagin. Zero, sen to'g'ri yo'lga boshlaysan, singanni davolaysan, faqirni boy qilasan.

Allohim, Senga yo'liqmay bizning ilojimiz yo'q, huzuringda uzrimizni maqbul,

gunohimizni mag'fur, ilmimizni mavfur (to'ldirilgan), sa'yimizni mashkur qilgin. Mening foniy yuzim Sening Boqiy, Qayyum, izzat va qudrat egasi bo'lgan Vajhingdan mudom ajr istagan holatda turibdi.

Allohim, agar menga yordam bersang, hech kim meni Sendan man qila olmaydi. Agar Sen meni (biron narsadan) mahrum qilsang, menga hech kim (uni) bera olmaydi. Meni shukrim ozligi uchun mahrum qilmagin. Sabrim ozligi uchun xorlamagin.

Allohim, o'limni biz intizor bo'layotgan g'oiblarning eng yaxshisi qilgin, qabrni ta'mir qilayotgan uylarimizning yaxshisi qilgin. Undan keyingi narsalarni biz uchun undan ko'ra yaxshiroq qilgin. Rabbim, meni, ota-onamni, bolalarimni, og'a-inilarimni, ahli baytimni, zurriyotimni, mo'minu mo'minalarni, muslimu muslimalarni, ulardan tiriklaru o'liklarini mag'firat qilgin.

Allohim, Sendan qalbimni boshqaradigan iymonni, menga faqatgina Sen taqdir qilib yozganing yetishligini bildirib, qozoingga rozi qiladigan haqiqiy ishonchni so'rayman. Meni dunyoda iffat va qanoat bilan, dinda toat bilan qo'llagin. Tilimni yolg'ondan, qalbimni nifoqdan, amalimni riyodan, ko'zimni xiyonatdan poklagin. Zero Sen xiyonatkor ko'zni, ko'ngillar maxfiy qilgan narsalarni bilasan.

Allohim, dunyodagi g'aribligimda, o'lim paytidagi halokatimda, qabrdagi yolg'izligimda va Sening oldingda turganimda menga rahm qilgin. Ey Allohim, Sen salomsan va salom Sendandir. Ey ulug' va hurmatli zot, Sen barakotlisan.

Allohim, Maliksani, Sendan boshqa hech iloh yo'q va men Sening bandangman, men nafsimga zulm qildim, gunohimni e'tirof etdim. Bas, gunohimni mag'firat qil. Zero Sendan boshqasi gunohlarni mag'firat etolmaydi, Meni xulqlaring yaxshisiga Sendan boshqa hech kim hidoyat qilolmaydi. Mendan xulqlarning yomonini burib yuborgin, zero uning yomonini Sendan boshqa hech kim bura olmaydi. Labbay Allohim, amringga hozirman. Jamiki yaxshilik Sening qo'lingda, Senga tavba qilaman. Allohim, agar hayot men uchun yaxshi bo'ladigan bo'lsa, meni tirik qoldirgin. Agar o'lim men uchun yaxshiligini bilsang, vafot ettirgin. Ishlarimning to'g'rirog'iga hidoyat qilgin. Nafsimning yomonligidan meni qutqargin.

Allohim, har bir ishda oqibatlarimizni xayrli qilgin. Dunyo sharmandaligidan va oxirat azobidan panoh bergin. Va dunyodagi g'aribligimda, o'lim payti vafotimda, qabrdagi yakkaligimda va huzuringda turganimda rahm qilgin.

Allohim, men Sendan toyyib, Tohir, Muborak va Sen uchun sevimli bo'lgan, qaysiki agar u bilan duo qilinsa ijobat qiladiganing, agar u bilan rahm so'ralsa, rahm qiladiganing, agar u bilan faraj (qiyinchilikdan chiqish yo'li) so'ralsa uni ato qiladiganing isming bilan kufrdan, faqirlikdan, kasalliklar va g'arazlardan va boshqa bemorliklar va og'riqlardan panoh berishingni so'rayman.

Va Sendan yaxshilikning ochuvchilarini, xatm qiluvchilarini, jam' qiluvchilarini, avvaliyu oxirini, zohiriyu botinini va oliy darajalarni so'rayman.

Allohim, men Sendan yaqin faraj (chiqish yo'lini)ni, aziz nusratni (yordamni), chiroyli sabrni, ochiq-ravshan fathni, manfaatli ko'p ilmni, balosiz, ofiyatdagi, muborak, keng



rizqni so'rayman. Va Sendan har balolardan omonlikni va ofiyatning hammasini va uning shukrini so'rayman.

Allohim, O'z qo'rqinchingdan men va ma'siyating o'rtasini to'sadigan darajadagisini, toatingdan meni jannatingga yetkazadigan darajadagisini, ishonchdan menga dunyo musibatlarini yengil qiladigan miqdordagisini taqsim qilishingni so'rayman.

Allohim, qulog'im, ko'zim va dinim bilan meni foydalantirgin, uni mendan voris qilgin. Menga zulm qilganga nisbatan mening qasosimni qoim qilgin. Menga dushmanlik qilganga qarshi mening uchun yordam bergin. Dunyoni g'amlarimning kattasi, ilmimning chegarasi va qaytish o'rnimni insonlarning huzuriga qilib qo'ymagin.

Allohim, men Sendan Karim Vajhing bilan, Aziym Sultonliging bilan haqiqiy tavbani, xolis qaytishlikni, komil yuzlanishlikni, g'olib muhabbatni, Senga shavqni, huzuringdagi narsaga rag'batni, tezkor bo'lgan farajni (chiqish yo'li), keng rizqni, zikring bilan nam bo'lgan tilni, shukring bilan ne'matlangan qalbni va toatingga yengil, muloyim bo'lgan badanni so'rayman.

Bizlarga ko'z ko'rib, quloq eshitmagan, bashariyat qo'ngliga kelmagan narsani ato qilgin. Allohim, bizlar Sendan boshqaga faqir bo'lishlikdan, Sendan boshqaga xor bo'lishlikdan, Sendan boshqadan qo'rqishlikdan panoh so'raymiz. Va bo'hton so'zlashdan, fujurga botishlikdan, Sen bilan mag'rurlanib qolishdan Sendan panoh so'raymiz. Va dushmanning ichqoraligidan, bedavo kasallikdan, umidning so'nishidan, ne'matning zavol bo'lishidan va to'satdan keluvchi intiqomdan Sen bilan panohlanaman. Ey talab etuvchilar uchun eshigini ochuvchi, rag'bat qiluvchilar uchun boyligini zohir qiluvchi, tili qosirlarning tilini yechib yuboruvchi, solih bandalaringga ilhom etgan narsalaringni bizlarga ham ilhom qilgin. Va g'ofillarning uyqusidan bizlarni uyg'otgin. Sen ne'mat beruvchilarning qaramlirog'i va yordam beruvchilarning Azizrog'isan.

Allohim, ayblarimizni faqat mehribonliging yaxshiligina berkitadi va gunohlarimizni faqat ehsoning va afving kengligigina mag'firat qiladi. Bizlarni yaxshilarning yo'llariga yo'llagin va to'g'ri yo'lda yurishimizni bizga ilhom qilgin. Rizvoningda hissamizni katta qilgin, bizlarni gunohimiz sababli mahrum qilma, ayblarimiz sababli bizlarni quvmagin, yaxshiligingdan bizlarni uzib qo'ymagin, zikringni bizlarga unuttirib qo'ymagin, bizlardan satringni (ayblarimiz ustidagi pardangni) olib tashlamagin, qilib qo'ygan gunohlarimizni mag'firat qilgin, shukring va toatingdagi bizning kamchiligimizni afv etgin. Sening yo'lingda yurishlikni bizlarga bardavom qilgin. Sening yo'lingga hidoyatlanishimiz uchun nurni ato etgin. Munojoting halovati bilan rizqlantirgin. Va O'zing rozi bo'ladigan yo'lga bizlarni yo'llagin. Xizmating va toatingdan uzoqlashtiradigan har bir narsani bizdan uzgin. Tubanliklarimizdan va g'afatlarimizdan qutqargin. Bizga to'g'ri yo'lda yurishimizni ilhom qilgin. Sen haqingdagi qasdimizni tahqiq topdirgin va dunyoyu oxiratimizda (ayblarimizni) to'sgin. Bizlarni muttaqiyilarning guruhidan qilib tiriltirgin. Solih bandalaring bilan bizlarni birga qilgan.

Allohim, bizlarni abror imomlardan qilgin. Bizlarni ular bilan birga dorul-qarorda (jannat) yashattirgin, fojir, muxoliflardan qilmagin. Bizlarni Senga chiroyli yuzlanishlikka, Seni tinglashga, xizmatingga shoshishlikka, Sen bilan muomalada chiroyli odobga, amringga taslim bo'lishlikka, Sening rozi bo'lishlikka, sinovingga sabr, ne'matlaringga shukr qilishlikka muvaffaq etgin. Bizlarni badbaxtlik holatlaridan asragin. Taqvodorlarning

amallariga bizlarni muvaffaq qilgin. Ey suyanib, tayaniladigan zot, O'zingga ro'baro' bo'linadigan kun uchun hozirlanish bilan bizlarni rizqlantirgin.

Allohim, bizlarni najot topganlar dasturiga yo'llagin. Iymon, ishonch libosi bilan kiyintirgin. O'zing tarafingdan ochiq-ravshan tavfiq bilan xoslagin. Haq so'zga muvaffaq qilib, unga ergashishlikni nasib qilgin. Bizlarni botildan xalos qilib, unga ergashishlikdan asragin. Bizlarni qo'llaguvchi bo'lgin. Bizning zararimizga fojirni qo'llovchi bo'lmagin. Farovon hayotni nasib qilgin. Dushman va hasadgo'ylar ichqoraligidan asragin. Bizlarni manfaatli ilm, qabul etilgan amal, zakiy fahm, sof tab' va har bir kasallikdan davo bilan rizqlantirgin.

Allohim, bizlarga mag'firating bilan muomala qilgin, fazling va ehsoning bilan omonlik bergin, do'zaxdan panoh bergin, halokat va sharmandalik diyorida ofiyat ato etgin, fazling bilan dorul-qaror bo'lmish jannatga kirgizgin. O'z roziliging diyorida ne'mat ato etilganlar bilan birgalikda qilgin ey ma'rifati qalblarga zohir bo'lgan, mavjudligi maxfiy bo'lmaydigan, jamiki maxluqlarini karami va sahiyligida umumiy qilgan Zot!

Allohim, ahdimni bu ulug' o'rindagi oxirgi ahdim qilmagin, bu yerga ko'p marotaba qaytib kelishligimni umumiy bo'lgan lutfing bilan rizqlantirgin. Unda meni najot topgan, rahm qilingan, duolari mustajob etilgan va qabul, rizvon, kechib yuborishlik, mag'firat va keng, halol rizq bilan foyda ko'rganlardan qilgin. Jamiki ishlarim va qaytib boradiganim ahlim, molim va bolalarimda barakot ato qilgin.

Parvardigoro, bizlarga dunyoda ham, oxiratda ham yaxshiliklarni ato etgin va bizni do'zax azobidan asragin.

Bizlarni, ota-onalarimizni, zurriyotlarimizni, og'a-inalarimizni, ahlu ayollarimizni, musulmonlardan bo'lgan hozirlarimizni va g'oiblarimizning hammalarini o'z rahmating bilan mag'firat qilgin, ey rahm qiluvchilarning rahmlirog'i! Sayyidimiz Muhammad (s.a.v.)ga va u kishining ahli va ashoblarining hammalariga Allohning salotu salomi bo'lsin.

### **Mash'arul harom duosi**

(Bomdod namozidan keyin)

Agar imkon bo'lsa, Mash'arul haromga ko'tarilib boradi yoki uning yonida to'xtaydi va Alloh taologa hamd, takbir va tahlil aytib, shunday duo qiladi:

*«Allohumma kama avqoftana va`avroytana iyyahu, favaqqifna lizikrika kama hadaytana vag'fir lana varhamna kama va'attana biqovlika, vaqovlukal haqq: **(Fa`iza afaztum min`arofaatin fazkurulloha`indal mash'aril haromi vazkuruuhu kama hadakum va`in kuntum min qoblihi laminazzolliyn, summa afiyyuu min haysu afaazonnasu vastag'firulloha innalloha g'ofuurur rohiym).***

Allohim, Unda to'xtatib, uni bizga ko'rsatganingdek, O'zingning zikringga bizni hidoyat qilganingdek muvaffaq qilgin. Bizlarni mag'firat qilgin va rahm qilgin, o'z qavlingda va'da berganingdek va Sening so'zing haqdir:

**«Endi Arafotdan (Makka yaqinidagi tog`) tushganingizdan keyin Mash'arul haromda Allohni zikr qiling. U zot sizlarni – garchi ilgari adashganlardan bo'lgan esangiz-da – haq yo'lga hidoyat qilgani yanglig` sizlar ham u zotni eslang – zikr qiling».**

*«Allohumma inna nas`aluka ya g'ofuuru ya rohiymu an taftaha li`ad'iyatina abvabal ijabati, ya man iza sa`alahul muztorru ajabahu, ya man yaquulu lishshay`i kun fayakuunu. Allohumma inna ji`naka bijam'in mutashaffi'iyina ilayka fiy g'ufronika zunubana, fala taruddana xo`ibiyana, va`atina afzola ma tu`tiy`ibadakas solihiyana va la tasrifna min hazal mash'aril`aziymi illa faa`iziyna g'oyro xozaya vala nadimiyna vala zoolliyana vala muzilliyana, ya arhamarrohimiyana, Allohumma vaffiqna lilhuda va'simna min asbabil jahli varrodaa vasallimna min aafatin nufuusi fa`innaha sharrul`adva, vaj'alna mimman aqbalta`alayhi fa`a'rozo`amman sivaka vaxuz bi`aydiyna ilayka, varham tazorru'ana bayna yadayka, ilaahana qovvimna iza i'vajajna, vaa'inna iza istaqomna, vakun lana vala takun`alayna va`ahyina fiddunya mu`miniyna to`i'iyana vatavaffana muslimiyna ta`ibiyana, vaj'alna`indas su`aali taa`ibiyana, vaj'alna mimman ya`xuzuuna kitabahum biyamiynihim, vaj'alna yavmal faza'il`akbari minal aaminiyna, vamatti'na Allohumma binnazori ila vajhikal kariymi birohmatika ya arhamar rohiymiyn».*

Allohim, biz Sendan – ey G'ofur, Rahiym, duolarimiz uchun ijobat eshiklaringni umid qilib huzuringga kelganmiz, bizlarni noumid qaytarmagin. Solih bandalaringga beriladigan narsalarning afzalini bizlarga bergin. Bizni bu mash'arul aziymdan faqatgina foyda ko'ruvchilar, najot topuvchilardan qilib qaytargin, sharmanda bo'lgan, nadomat qiluvchi, adashgan va adashtiruvchilardan qilib emas, ey rahm qiluvchilarning rahmlirog'i!

Allohim, bizlarni hidoyatga muvaffaq qilgin, jahl va halokat sabablaridan poklagin. Nafs ofatlaridan salomat qilgin, zero, u dushmanlarning yomonrog'idir. Bizlarni o'zingga yuzlanib, Sendan boshqasidan yuz o'g'irgan kishilardan qilgin. O'zingni huzuringga qarata qo'llarimizdan tutgin va oldingdagi tazarrularimizga rahm qilgin. Ilohimiz, agar to'g'ri yo'ldan og'sak, bizlarni to'g'rilab qo'ygin, agar to'g'ri yo'ldan ketsak, bizlarni qo'llagin. Bizlarning tarafimizda bo'lgin, ziddimizda bo'lmagin. Bizlarni dunyoda mo'min, ko'ngillilardan qilib tiriltirgin va musulmon, tavba qiluvchilardan qilib vafot ettirgin. Bizlarni savol paytida tavba qiluvchilardan etgin. Kitobini o'ng tarafdand oladiganlardan qilgin. Katta qo'rqinch kunida bizlarni omon bo'luvchilardan qilgin.

Allohim, O'zingning Karim Vajhingga nazar qilishlik bilan manfaatlantirgin, Sening rahmatingdan umidvormiz, ey rahm qiluvchilarning rahmlirog'i!

Bundan keyin zikrni va «*Robbana atina fid dunya hasanatan va fil axiroti hasanatan va qina`azaban nar*» (Parvardigoro, bizlarga dunyoda ham, oxiratda ham yaxshiliklarni ato etgin va bizni do'zax azobidan asragin), duosini ko'paytiradi.

**Foyda:** Hoji uchun sayrda Muhassir vodiysi bo'ylab tezroq yurishlik mustahabdir. Mushrif tog'idagi Mushrif tepasidan chap tarafga qarab boshlaydi va yurishida quyidagi duoni o'qiydi:

*«Allohumma la taqtulna big'ozobika vala tuhlikna bi'azabika va'aafina qobla zalika a'uuzu billahis samiy'il`aliymi minash shaytonir rojiym».*

Allohim bizlarni g'azabing bilan o'ldirmagin, azobing bilan bizlarni halok qilmagin, bundan oldin bizlarga ofiyat ato etgin. Eshituvchi va ko'ruvchi Alloh bilan quvilgan shaytondan panohlanaman.

### **Mino duosi**

*«Allohumma hazihiy mina famnun 'alayya bima mananta bihi 'ala avliya`ika va`ahli to'atika, subhanallaziy fissamaa`i 'arshuhu, subhanallaziy fil arzi satvatuhu, subhanallaziy fil bahri sabiyluhu, subhanallaziy finnari sultonuhu, subhanallaziy fil jannati rohmatushu, subhanallaziy rofa'as samaa`a vavazo'al arzo biqudrotihi, subhanallaziy la manja`a va malja`a minhu illa ilayhi».*

Allohim, bu Minodir, menga avliyolaring va ahli toatingga yaxshilik qilgan narsang bilan yaxshilik qilgin. Arshi samoda bo'lgan zot pokdir, hukmronligi yerda bo'lgan zot pokdir. Yo'li dengizda bo'lgan zot pokdir. Sultonligi do'zaxda bo'lgan zot pokdir. Rahmati jannatda bo'lgan zot pokdir. Qudrati bilan osmonni baland qilib ko'tarib, yerni past qilib qo'ygan zot pokdir. Undan boshqa iltijo qilinadigan, najot topiladigan yo'q, bular faqat Uning o'zigadir.

### **Jamratul aqaba duosi**

*«Allohumma iymanan bikitabika va vattiba'an lisunnati nabiyyika sollallohu alayhi vasallam. Allohu akbaru kabiyrone valhamdu lillahi kasiyrone, vasubhanallohi bukrotan va`asiyla, la ilaha illallohu, vahdahu la shariyka lahu. Allohummaj'alhu hajjan mabruuro vasa'yan mashkuuro».*

Allohim Sening Kitobingga iymon keltirgan holatda, kitobingni tasdiqlagan holatda, Sening ahdingga vafo qilib va Payg'ambaring, habibing Muhammad sollallohu alayhi vasallamning sunnatlariga ergashgan holatda (haj qilishga keldik). Alloh buyuklarning buyugidir. Allohga ko'p hamdlar bo'lsin. Ertayu kech Alloh taolo pok zotdir. Hech iloh yo'q, magar Uning o'zi bor, Uning uchun sherik yo'q. Allohim, hajimni mabrur, sa'yimni mashkur qilgin.

### **Tosh otish paytida o'qiladigan duo**

*«Alhamdu lillahi kasiyrone toyyiban mubarakan fiyhi. Allohumma la uhsiy sanaa`an 'alayka, anta kama asnayta 'ala nafsika. Allohumma ilayka afaztu, vamin 'azabika ashfaqtu, vailayka rog'ibtu, vaminka rohibtu, faqbil nusukiy, va`a'zim ajriy, varham tazorru'iy vaqbil tavbatiy, va`aqbil 'asrotiy, vastajib da'vatiy, va`a'tiniy su`liy. Allohumma robbana taqobbal minna vala taj'alna minal mujrimiyna va`adxilna fiy 'ibadikas solihiyne ya arhamarrohimiyn».*

Alloh taologa yoqimli, barakotli bo'lgan ko'p hamdlar bo'lsin. Allohim, Sen o'zingga maqtov aytganingdek, men Senga maqtov aytishga qodir emasman. Senga o'zimni topshirdim, azobingdan qo'rqdim, Senga rag'bat qildim, ajrimni katta qilgin, o'tinchlarim

uchun rahm qilgin, tavbamni qabul etgin, xatoimni kamaytirgin, duoimni mustajob qilgin, so`raganimni bergin. Allohim, bizlardan qabul etgin, bizni jinoyatchilardan qilmagin va bizni solih bandalaring orasiga kiritgin ey rahm qiluvchilarning rahmlirog`i!

### **Har bir muqaddas joyda o`qiladigan duo**

«Allohumma robbana taqobbal minna va`aafina va`fu `anna. Allohumma tavaffana muslimiyna, va`ahyina muslimiyna, va`alhiqna bissolihiyn. Allohumma inniy avda`tu hazal mahallash shariyfa min yavmina haza ila yavmil qiyamati, xolison muxlison. Ashhadu al la ilaha illallohu, vaanna muhammadan `abduhu va rosuluhu».

Allohim bizdan qabul et, bizga ofiyat ato qilib, bizni afv et. Allohim, bizni musulmon holatda vafot ettirib, musulmon holatda tiriltirgin va solihlar bilan birga qilgin.

Allohim, sharofatli makonni bugungi kunimizdan to qiyomat kunigacha holis, muxlis holatda saqlayman. Allohdan boshqa hech Iloh yo`qligiga, Muhammad alayhissalom Uning bandasi va rasuli ekanligiga guvohlik beraman.

### **Tavofi vado` duosi**

(Agar Makkadan chiqishlikni xohlasa)

«(Innallaziy farozo `alaykal qur`ana laroodduka ila ma`aadin), ya mu`iyzan a`izniy, ya samiy`u isma`niy, ya jabbaru ujburniy ya sattaru usturniy, ya rohmanu irhamniy, ya roddadu urdudniy ila baytika haza, varzuqniyal `avda summal `avda karrotin ba`da marrotin, ta`ibiyina, `abidiyina, sa`ihiyina, lirobbina hamidiyina, sodaqollohu va`dahu, vanasora `abdahu, vahazamal ahzaba vahdahu, Allohumma uktubissalamata val `afiyata val g`onimata lana vali`abdikal hujjaji, vazzuvvari val g`uzati val musafiriyna valmuqiymina fiy barrika va bahrika min ummati muhammadin ajma`iyn. Allohummahfazniy `an yamiyniy va`an yasariy, vamin quddamiy va min varo`i zohriy vamin favqiy, vamin tahtiy hatta tuvassilaniy ila ahliy vabaladiy as`aluka al la tuxliyniy min rohmatika torfata `aynin, vala aqolla min zalik. Allohumma kun lana sohiban fiy safarina, vaxolifatan fiy ahlina, vatmis `ala vujuuhi a`daa`ina, vamsaxhum `ala makanatihim fala yastatiy`uunal maziyya valal majiy`a ilayna, Allohummarhamniy bitarkil ma`aasiy vama la ya`niyniy ma abqoytaniy varhamni an atakallafa mala ya`niyni varzuqniy husnannazori fiy yurziyka `anniy. Allohumma matti`niy bibasoriy vaj`al hul varisa minniy, va`ariniy minal`aduvvi sa`riy vansurniy `ala man zolamaniy. Allohumma inniy a`uuzu bika minal hammi val huzni vaa`uuzu bika minal `ajzi valkasali, vaa`uuzu bika minal jubni val buxli, vaa`uuzu bika min g`olabatid dayni va qohrir rijali. Allohumma inna nas`aluka fiy safarina hazal birro vattaqva, vamin al `amali ma tarzo. Allohumma havvin `alayna safarona haza, vatovvi`na bu`dahu. Allohumma antas sohibu fis safari, valxolifatu fil ahli. Allohumma a`uuzu bika min va`asaa`is safari vaka`aabatil manzori vasuu`il munqolabi filmali val`ahli val valadi. Allohummatvi`lanal arzo vahavvin `alaynas safaro. Allohumma balag`on yablug`u xoyron, vasitron minka, varizvanan biyadikal xoyru, innaka `ala kulli shay`in qodiy. Allohumma havvin `alaynas safaro, vatvi lanal arzo, Allohumma asbahna fi safarina, vaxlufna fiy ahlina. Allohummahfazniy min bayna yadayya vamin xolfiy va`an yamiyniy, va`an shimaliy, vamin favqiy, va`a`uuzu bi`azomatika an ug`tala min tahtiy ya arhamar rohimiyina ya robbal `alamiyn».

**«(Ey Muhammad), albatta sizga (ushbu) Qur'onni (ya'ni uni tilovat qilishni, unga amal qilishni va uni ummatlaringizga yetkazishni) farz qilgan zot, shakshubhasiz sizni bir qaytadigan joyga (Makkaga) qaytarguvchidir».** Ey Qutqaruvchi meni qutqargin, ey eshituvchi meni eshitgin, ey ulug' Quدرات sohibi, meni tuzatgin, ey (ayblarni) to'suvchi, meni to'sgin, ey Rahmon, menga rahm qilgin, ey Qaytaruvchi, meni bu Uyingga qaytargin. Unga qaytishlikni menga nasib qilgin, tavba qilgan holatda, ibodat qilgan holatda, sayohat qilgan, Rabbimizga hamd aytgan holatda so'ng yana qaytishlikni bir necha marta nasib qilgin.

Alloh taoloning va'dasi rost bo'ldi, bandasiga yordam berdi, askarini aziz qildi, guruhlarni bir O'zi yengdi.

Allohim, bizga va Muhammad alayhissalom ummatlaridan bo'lgan quruqlik va suvdagi jamiki muqim va musofir, g'oziy, Baytingni ziyorat qiluvchi va hoji bandalaringga g'animat, ofiyat va salomatlikni yozgin.

Allohim, meni o'ngimdan, chapimdan, oldimdan, orqamdan, ustimdan va ostimdan to ahlim va yurtimga yetib olgunimcha asragin. Meni ko'z ochib-yumguncha, undan ham ozroqqa ham rahmatingdan xoli qilmagin.

Allohim, bizning safarda sohibimiz va ahlimiz uchun bizdan xalifa bo'lgin.

Dushmanlarimiz yuzini teskari qilgin, ularni yurtlariga qaytarib yuborginki, toki biz tarafga o'tishga ham, kelishga ham qodir bo'lmasinlar.

Allohim, buni Baytingdagi oxirgi ahdim qilmagin. Allohim, ma'siyatni tark etishlik bilan meni boqiy qoldirganingcha menga rahm qilgin, bema'ni narsaga berilishdan saqlab rahm qilgin. Mendan rozi bo'ladigan narsalaringga chiroyli nazar qilishlik bilan meni rizqlantirgin.

Allohim, ko'zim bilan meni manfaatlantirgin va uni mendan voris qilgin. Dushmanlardan o'chimni ko'rsatgin, menga zulm qilganlarga qarshi menga yordam bergin.

Allohim, Sen bilan xafachilik, g'amdan panohlanaman, Sen bilan ojizlik va dangasalikdan, qo'rqqoqlik va baxillikdan panohlanaman, Sen bilan qarzdorlik bosib qolishidan, kishilarning zo'ravonligidan panohlanaman.

Allohim, Sendan bu safarimizda yaxshilik va taqvoni va O'zing rozi bo'ladigan amallarni so'rayman.

Allohim, Sen safarda sohibsan va ahlu ayolga xalifasan.

Allohim, Sen bilan safar mashaqqatlaridan, tushkun ko'rinishdan va molim, ahlim va bolalarimda yomon o'zgarishdan panohlanaman.

Allohim, afving bilan tong ottirdik, ofiyating bilan qo'zg'oldik.

Allohim, biz uchun yerning tanobini tortgin, (yo'limizni yaqin qilgin) va safarni bizga yengil qilib, yomon o'zgarishdan bizni salomat qilgin. Yaxshilikka yetkazuvchi Allohim,

meni xayriyatga yetkazgin, o'zingdan menga satr (ayblarga to'siq), rozilik, ato et, xayriyat Sening qo'lingdadir, albatta Sen har bir ishga qodirsan.

Allohim, bizga safarni yengil qilib, yo'lni yaqin qil. Allohim, safarda tong ottirdik, Sen bizning ahlu ayolimizda xalifa bo'lgin.

Allohim, oldimdan, orqamdan, o'ngimdanu chapimdan va ustimdan meni saqlagin. Va ostimdan menga xoinlik qilishlaridan Azamating bilan panohlanaman, ey rahm qiluvchilarning rahmlirog'i, ey olamlarning Robbisi!

### **Vidolashuv tavofidan keyin o'qiladigan duo**

Multazam yonida to'xtab, unga butun gavdasini yopishtiradi va quyidagi duoni o'qiydi:

*«Allohumma, haza baytuka va ana 'abduka vabnu 'abdika vabnu amatika hamaltaniy 'ala ma saxxorta liy min xolqika hatta sayyartaniy fiy biladika va ballag'taniy bini'matika hatta a'antaniy 'ala adai nusukiy fain kunta roziyta 'anniy fazdad 'anniy rizon va illa faminal ana qobla an tan`aya 'an baytika dariy haza avanu insirofiy in azinta liy g'oyro mustabdilin bika va la bibaytika va larog'ibin 'anka va la 'an baytika, Allohumma fashabnil 'afiyata fiy badaniy, vassihhata fiy jismi val'ismata fiy diyiniy va ahsin munqolabiy varzuqniy to'ataka ma abqoytaniy vajma'liy xoyroddunya val `axiroti, innaka 'ala kulli shay`in qodiy. Va sollallohu 'ala sayyidina muhammadin va'ala aalihi vasohbihi ajma'iy».*

«Allohim, bu Sening bayting, men Sening bandangman va bandangning o'g'liman, cho'ringning o'g'liman, maxluqlaring ichidan menga bo'ysundirganing narsada meni ko'tarding va mamlakatlaringda sayr qildirding, hatto ne'mating bilan Baytingga yetkazding va ibodatlarimni ado etishda sabotli etding. Agar mendan rozi bo'lsang, roziligingni ziyoda qilgin. Zero, Seni va Baytingni hech nimaga almashtiruvchi bo'lmagan, Sendan va Baytingdan yuz o'giruvchi bo'lmagan holatimda agar izn bersang, bu mening uyimga qaytish vaqtimdir. Badanimda ofiyat, jismimda sihat, dinimda poklik bilan tong ottirgin. O'zgarishimni chiroyli qilgin va umrimning oxirigacha toating bilan rizqlantirgin. Menga dunyoyu oxirat xayriyatlarini jamlagin. Albatta Sen har bir ishga qodirsan.

Alloh taoloning salotu salomi Sayyidimiz Muhammad (s.a.v.)ga, ahli baytlariga va jamiki ashoblariga bo'lsin.

### **Madinai munavvara ziyorati duolari**

*"Assalamy 'alayka, ayyuhan nabiiyyu va pohmatyillahi va bapokatyhy.*

*Assolatu vassalamy 'alayka, yaa cayyidana ya rosulalloh.*

*Assolatu vassalamy 'alayka, ya nabiiyyalloh.*

*Assolatu vassalamy 'alayka, ya xoyro xolqillah.*

*Assolatu vassalamy 'alayka, ya man arsalahullohu rohmatal lil'alamiyn.*

*Assolatu vassalamy 'alayka, ya sayyidal mursaliyna va xotaman nabiiyina va imamal muttaqiyn va qo`idal g'urril muhajjaliyn.*

*Assalamu 'alayka ya man vasofahullohu biqovlihi: Vainnaka la'ala xuluqin 'aziym, vabilmu`miniyna ro`uufur rohiym. Assalamu 'alayka va 'ala saa`iril anbiyaa`i val mursaliyna va 'ala ahli to`atikat toyyibiynat tohiriyna. Assalamu 'alayka va 'ala azvajikat tohirooti, ummahatil mu`miniyna. Assalamu 'alayka va'ala ashabika ajma'iyn, va'ibadillahis solihiyn. Ashhadu al la ilaha illallohu vahdahu la shariyka lahu va ashhadu anna muhammadan `abduhu va rosuluhu, va ashhadu annaka ya rosulalloh, qod ballag`tap picalata va addaytal amanata va nacahtal ymmata va da'avta ila sabiyli robbika bilhikmatil val mav'izotil hasanati va'abatta robbaka hatta atakal yaqiyn. Fasollallohu 'alayka kasiyron afzola va akmala va atyaba ma solla 'ala ahadin minal xolqi ajma'iyn. Allohumma ajzi `anna nabiiyana afzola ma jazayta ahadan minannabiiyina val mursaliyn. Allohumma aatihil vasiylata val faziylata vab'ashu maqoman mahmuudanillaziy va'attahu, Allohumma solli 'ala muhammadin va'ala aali muhammadin kama sollayta 'ala ibrohiyma va 'ala aali ibrohiyma, innaka hamiydun majiyd. Robbana amanna bima anzalta vattaba'nar rosula faktubna ma'ash shahidiyn, valhamdu lillahi robbil `alamiyn».*

Assalomu alaykum, ey Allohning rasuli.

Allohning salotu salomi sizga bo'lsin, ey sayyidimiz, Allohning rasuli. Allohning salotu salomi sizga bo'lsin, ey Allohning payg'ambari, Allohning salotu salomi sizga bo'lsin, ey Alloh maxluqlarining yaxshisi, Allohning salotu salomi sizga bo'lsin, ey Alloh taolo olamlarga rahmat qilib jo'natgan zot, Allohning salotu salomi sizga bo'lsin, ey rasullarning sayyidi va payg'ambarlarning oxirgisi, taqvodorlarning imomi, oq qashqaliklarning yo'l boshchisi.

Allohning salotu salomi bo'lsin, ey Alloh taolo: "ulug' xulq sohibi, mo'minlarga marhamatli" deb nomlagan zot. Allohning salotu salomi sizga va boshqa rasul, payg'ambarlarga va tohir, toyyib ahli baytingizga bo'lsin. Allohning salotu salomi sizga va mo'minlarning onalari bo'lmish pok ayollaringizga bo'lsin. Allohning salotu salomi sizga, jamiki ashoblaringizga va Alloh taoloning solih bandalariga bo'lsin. Hech iloh yo'q, magar sherigi yo'q yolg'iz Alloh bor, deb guvohlik beraman. Sayyidimiz Muhammad alayhissalom Allohning rasuli va bandasi deb guvohlik beraman.

Guvohlik beramanki, albatta siz Muhammad alayhissalom, risolatni yetkazdingiz, amonatni ado etdingiz, ummatga nasihat qildingiz va Rabbingizning yo'liga hikmat va va'z bilan da'vat qildingiz, to o'lim vaqti kelgunicha Robbingizga ibodat qildingiz. Alloh taolo boshqa maxluqlariga yuborgan salotu salomidan afzalroq, komilroq va toyyibroq salomini sizga yuborsin. Alloh taolo boshqa payg'ambar va rasullarini mukofotlaganidan afzalrog'i bilan bizning nomimizdan sizni mukofotlasin. Allohim, u zotga vasila va fazilatni bergin, u zotni va'da qilganing mahmud maqomda tiriltirgin.

(Allohim, Ibrohim alayhissalomni va u zotning oilalarini yaxshilik va rahmatda qilganing kabi, Muhammad alayhissalomni va u zotning oilalarini ham yaxshilik va rahmatda qil.



Albatta, Sen maqtoqli ulug' zotsan).

**«Parvardigoro, nozil qilgan narsangga ishondik, payg'ambaringga ergashdik. Bas, bizni (O'zingning birligingga, payg'ambaringning haqligiga) guvohlik beruvchilar qatoriga yozgin.»** Olamlarning robbisi Allohga hamd bo'lsin.

Agar haj qiluvchiga biron kishi Rasululloh alayhissalomga salom berishlikni vasiyat qilgan bo'lsa, shunday deydi:

*«Assalamu 'alayka ya rosulallohi, min fulan ibni fulan»*

«Ey Rasululloh, Sizga falonchi o'g'li falonchidan salom». (Misol uchun)

So'ng bir ozroq surilib, Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhuga salom beradi.

*«Assalamu 'alayka ya xolifata rosulillahi Aba Bakr as-Siddiq..*

*Assalamu 'alayka ya man qola fiy haqqika rosululloh sollallohu 'alayhi vasallama, ya Aba Bakr anta 'atiqu minannar, Assalamu 'alayka ya sohiba rosulillahi va saniyasnayni iz huma fil g'ori. Assalamu 'alayka ya man anfaço malahu kullahu fiy hubbillahi va rosuulih hatta taxollala bil'aba`. Jazakallohu 'an ummati rosulillahi xoyrol jaza`i, Allohummazri 'anhu, varfa' darojatahu, va `akrim maqomahu, va `ajzil savabahu bifazlika va karomika aamiyn».*

Allohning salotu salomi sizga bo'lsin, Rasululloh alayhissalomning xalifalari Abu Bakr Siddiq. Allohning salotu salomi sizga bo'lsin, ey Rasululloh alayhissalom: Ey Abu Bakr, sen do'zaxdan ozodirsan, degan zot. Allohning salotu salomi sizga bo'lsin, ey Rasululloh alayhissalomning sohiblari va g'ordaliklarida ikki kishining biri bo'lgan zot. Allohning salotu salomi bo'lsin sizga ey Allohning va rasulining sevgisi uchun hamma narsasini infoq qilib faqat bir 'abo (to'n)da qolgan zot. Alloh taolo sizni ummati Muhammadiy nomidan xayrli holatda mukofotlasin. Allohim undan rozi bo'l, darajasini ko'targin, maqomini ulug' qilgin va fazling, karaming bilan savobini ko'paytirgin. Omiyn.

So'ng o'ng tarafga ozroq surilib Umar ibn Xattobga salom beradi:

*«Assalamu 'alayka amiyrol mu`miniyna umarobnil xattobi, Assalamu 'alayka ya qola fiy haqqika rosulullohi sollallohu 'alayhi vasallama umarubnul xattobi siroju ahli jannat, vaqola ayzon: Vama tola'atish shamsu 'ala rojul in xoyrun min Umar. Assalamu 'alayka ya Abal fuqoro`i vazzu'afaa`i val`aromili val`aytami, Jazakallohu 'an ummati rosulillahi xoyrol jaza`i, Allohummazri 'anhu, varfa' darojatahu, va `akrim maqomahu, va `ajzil savabahu bifazlika va karomika aamiyn».*

Allohning salotu salomi sizga bo'lsin, ey haqqida Rasululloh alayhissalom: Umar ibn Xattob jannat ahlining chirog'idir, degan zot. Va yana aytganlar: «Umardan ko'ra Yer yuzida yaxshiroq kishi yo'qdir». Allohning salotu salomi bo'lsin sizga ey fuqarolar, zaiflar, beva va yetimlarning otasi. Alloh taolo sizni ummati Muhammadiy nomidan xayrli holatda mukofotlasin. Allohim undan rozi bo'l, darajasini ko'targin, maqomini ulug' qilgin va fazling, karaming bilan savobini ko'paytirgin. Omiyn. So'ng ravzai mutohharaga o'tadi.

## Ravzai mutohharada o'qiladigan duolar

Qiblaga yuzlanib Alloh taolaga hamdu sano aytadi va Nabiy alayhissalomga salavot aytadi. O'zi uchun, ota-onasi, qarindoshlari, birodarlari, vasiyat qilganlar va boshqa musulmonlar uchun shunday duo qiladi:

*«Allohumma innaka qulta vaqovlukal haqq: Valav annahum izzolamuu anfusahum jaa`uuka fastag`farulloha vastag`faro lahumurrosuulu lavajadulloha tavvabar rohiyma..»*

Allohim Sen aytgansan, Sening so'zing haq: **«Agar ular (shaytondan hukm so'rab borishlari bilan) jonlariga jabr qilgan paytlarida darhol sizning oldingizga kelib, Allohdan mag'firat so'raganlarida va payg'ambar ham ular uchun mag'firat so'raganida edi, Allohning tavbalarni qabul qilguvchi, mehribon ekanligini topgan bo'lur edilar».**

*«Allohumma inniy as`aluka an tushaffi'a fiy nabiiyyika va rosuulika muhammadan sollallohu alayhi vasallama yavma la yanfa'u malun vala banuuna illa man atalloha biqolbin saliyim, va`an tuvjiba liyal mag'firota kama avjabtaha liman ja`ahu fiy hayatih, Allohummaj'alhu avvalash shafi'iyna, va`anjahas sa`iliyna va akromal avvaliyina val aaxiriyna bimannika vakaromika ya akromal akromiyn. Allohumma inniy as`aluka iymanan kamilan va yaqiynan sodiqon hatta a'lamu annahu la yusiybuniy illa ma katabta liy, va'ilman nafi'an va qolban xoshi'an, valisanan zakiron va rizqon vasi'an vahalalan toyyiban, va'amalan solihan maqbuulan va tijarotan lan tabuur..Allohum mashroh suduurona vastur`uyuubana, vag'fir zunuubana, va aamin xovfana, vaxtim bissolihati a'malana, vataqobbal ziyarotana, varuddana min g'urbatina ila ahlina va avladina salimiyna g'onimiyna, vaj'alna min`ibadikas solihiyina, minallaziyna la xovfun`alayhim vala hum yaxzanuun. (Robbana la tuzig`quluubana ba'da iz hadaytana vahab lana min ladunka rohmatan innaka antal vahhab). Robbig'firliy valivalidayya valilmu`miniyna yavma yaquumul hisab. Subhana robbika robbil`izzati`amma yasifun va salamun`alal mursaliyn valhamdu lillahi robbil`alamiyn».*

«Allohim, Sendan so'raymanki, salomat qalbdan boshqa hech narsa, molu farzandlar ham foyda bermaydigan Kunda Muhammad alayhissalomni menga shafatchi qilishingni, unga hayotlik vaqtida kelganlarga vojib qilganingdek, menga ham mag'firatni vojib qilgin. Uni shafatchilarning avvali, soillarning muvaffaqiyat qozonadiganrog'i, avvalgiyu oxirgilarning mukarramrog'i qilgin, ey karamlilardan ham karamli zot. Allohim, men Sendan komil iymonni, faqat Sen taqdir qilgan narsagina yetishligini bildiradigan haqiqiy ishonchni, manfaatli ilmni, qo'rquvchi qalbni, zikr qiluvchi tilni, keng, halol va toyyib rizqni, maqbul, solih amalni va ziyon ko'rmaydigan tijoratni so'rayman.

Allohim, qalblarimizni keng, ayblarimizni to'silgan, gunohlarimizni kechirilgan, xavfimizni omonlik, amallarimizni solihlari bilan tamom qilgin, ziyoratimizni qabul qilgin. Bizni musofirlikdan ahlu bolalarimiz oldiga salomat, g'animatli qilib qaytargin. Xavf ham bo'lmaydigan, xafalik ham bo'lmaydigan solih bandalaringdan qilgin.

Parvardigoro, bizni hidoyat qilganingdan keyin – endi dillarimizni haq yo'ldan og'dirma va bizga O'z huzuringdan rahmat ato et! Albatta Sengina barcha yaxshiliklarni ato

etguvchisan! Izzat egasi bo'lgan Parvardigoringiz ular sifatlayotgan narsadan pokdir. Barcha payg'ambarlarga salom bo'lsin, olamlarning Rabbiga hamd bo'lsin!

### **Baqiy'da o'qiladigan duo**

Baqiy' Rasululloh alayhissalom zamonlaridan beri Madinai munavvaraning qabristonidir. Unda o'n mingga yaqin sahobai kiromlar (roziyallohu anhum) bor.

Agar ziyoratchi shu yerga yetib kelsa, ziyorat qilishligi va Rasululloh alayhissalom huzurlarida qilganidek, shunday duo qilishligi mustahabdir:

*«Assalamu 'alaykum daro qovmin mu`miniyna va inna inshaallohu bikum lahiqun, antum salafuna, vanahnu bil`asari, yag'firullohu lana valakum va yarhamullohul mustaqdimiyna minkum val musta`xiriyn. Allohumma la tahrimna ajrohum, vala taftinna ba'dahum, vag'fir lana valahum, Allohummag'fir li ahli baqiy'il g'orqod».*

Allohning salotu salomi bo'lsin sizga ey mo'minlar jamoasi, Alloh hohlasi, bizlar sizga yetishguvchimiz, sizlar bizning o'tganlarimiz, bizlar orqangizda qolganlarmiz. Alloh sizni va bizni mag'firat qilsin. Sizlardan avval o'tganlarga va keyin o'tganlarga rahm qilsin. Allohim, ularning ajrlaridan bizni mahrum qilma, ulardan keyin bizni fitnalantirma, ularni va bizni mag'firat qil. Allohim Baqiy'ul g'orqad ahlini mag'firat qilgin.

Baqiy'ning yuqorisida Usmon ibn Affon roziyallohu anhuning qabrlari bor. Unga yetib kelganda, shunday deyiladi:

*«Assalamu 'alayka ya zan nuuroyni Usman ibn Affan, assalamu 'alayka ya salisal xulafair roshidiyn. Assalamu 'alayka ya mujhiza jayshal `usroti binnaqdi val'ayni va jama'al qur`ana baynad daffatayni. Jazakallohu `an ummati rosulillahi xoyrol jaza`i, Allohummarzi `anhu, varfa' darojatahu, va `akrim maqomahu, va `ajzil savabahu aamiyn».*

Allohning salotu salomi sizga bo'lsin, ey ikki nur egasi Usmon ibn Affon, Allohning salotu salomi sizga bo'lsin, ey xulafoir-roshidiynlarning uchinchisi. Allohning salotu salomi sizga bo'lsin, ey qiyinchilik paytdagi askarni pul va quduq bilan ta'minlab, jihozlagan, Qur'oni karimni ikki daffa (hokimiyat jilovini qo'lga kiritilgan payt)da jamlagan zot. Alloh taolo sizni ummati Muhammadiy nomidan xayrli holatda mukofotlasin. Allohim undan rozi bo'l, darajasini ko'targin, maqomini ulug' qilgin va savobini ko'paytirgin. Omiyn.

\* \* \*

*Haj va umra qiluvchilar duolar kitobi shu yerda nihoyasiga yetdi. Alloh taolo hajjigingizni mabrur, duolaringizni qabul, ibodatlaringizni maqbul aylasin, O'zining hidoyat yo'lidan adashtirmasin! Omiyn!*

Online o'qish: <http://forum.ziyouz.com/index.php?topic=1734.0>  
Forum uchun Laylo tayyorladi.

[www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)  
2007